

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI**

**TARIXSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK
KAFEDRASI**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

**“TEMURIYLAR DAVLATIDA TASAVVUF
VAKILLARINING FOLIYATI (XV ASRNING BIRINCHI
YARMI”**

BAJARUVCHI: UMIROVA B.

ILMIY RAHBAR: ASS.BUZRUKOV M.J

SAMARQAND-2013

REJA:

Kirish.....	3-6
I Bob. Temuriylar davridagi tasavvuf tariqatlari haqida qisqacha ma'lumot	
1.1. Temuriylar davlatida ma'naviy-mafkuraviy vaziyat	7-15
1.2. Tasavvuf ta'limoti va uning yo'nalishlari	16-26
II Bob. Temuriylar davlatida tasavvuf vakillarining faoliyati	
2.1. Kubraviya tariqati vakili Husayn Xorazmiy hayoti va faoliyati	27-44
2.2. Naqshbandiya tariqati vakillari faoliyati	45-63
Xulosa.....	64-66
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	67-70

KIRISH

Keyingi yillarda O'zbekiston davlatchiligi tarixini va ma'naviy ildizlarini ilmiy tadqiq qilish, mavjud faktik material va manbalarga xolisona yondashish borasida bir qancha samarali ishlar amalga oshirildi. Ayni paytda, ma'naviy merosning tub mohiyatini aks ettiruvchi diniy va milliy qadriyatlarni qo'lyozma manbalar asosida o'rganish, ularni davr talabidan kelib chiqqan holda baholash, yangicha ilmiy tahlil qilishga katta ahamiyat berilmoqda. Chunki mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib¹ kelmoqda.

Mustaqil O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A. Karimov 1998 yilda bir guruh tarixchi olimlar bilan uchrashib tarixning millat va mamlakat taqdiridagi o'rni, vazifasini tamomila yangicha nazar, yangicha yondashuv bilan belgilab berarkan, jumladan shunday degan edi: “kim bo'lishidan qat'iy nazar, jamiyatning har bir a'zosi o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi”². Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni engib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur.

Darhaqiqat, “xalqaro maydonda mafkuraviy, g'oyaviy va informasion kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, yurtdoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon atrofda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch osoyishta hayotimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish”³ uchun

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараккиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997.- б. 137

² Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998.- б. 9

³ “Миллий ғоя тарғиботи ва маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш тўғрисида” Ўз. Р. Президентининг қарори // Ўзбекистон овози. – 2006 й. 26 август № 99-100

ham xalqimizni, millatimizni “haqqoniy tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur”.

Bugungi murakkab globallashuv davrida bunday tahdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o’ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan ma’naviy tarbiya bilan javob berish mumkin. “Chunki har qaysi millat yoki xalqning ma’naviyati uning bugungi hayoti va taqdirini, o’sib kelayotgan farzandlarining kelajagini belgilashda shak-shubhasiz hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi”⁴.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 25 avgustdagi “Milliy g’oya targ’iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to’g’risida”gi qarorida ta’kidlanganidek “yurtdoshlarimizni muqaddas islom dini va falsafasi, aziz-avliyolarimizning ibratli hayoti, qutlug’ qadamjolariga, boshqa diniy konfessiyalarga nisbatan hurmat ehtirom va bag’rikenglik ruhida tarbiyalash, jamiyatimizda sog’lom turmush tarzi, millatlararo totuvlik, o’zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash” jamiyatimiz ma’naviy hayotining asosini tashkil qiladi.

Jamiyat hayotining bir qismi bo’lgan din ijtimoiy hayotning boshqa sohalari bilan muqarrar ravishda munosabatda bo’lgan. Ularga ta’sir ko’rsatgan va o’zi ham boshqa sohalarning ta’siriga duch kelgan. Hozir mavjud bo’lib turgan diniy tartiblarning ko’pchiligi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy burilishlar, tangliklar davrida shakllanganligi bejiz emas. Shu tariqa din insoniyat tarixining turli davrlarida siyosat bilan o’zmi-ko’pmi ochiq-oydin munosabatga kirishgan. Ko’pincha, undan siyosiy va ba’zan bir taraflama, tor maqsadlarda foydalanib kelingan⁵.

Afsuski mustaqillikni qo’lga kiritgunimizga qadar Temur va temuriylar davri mazkur nuqtai nazardan o’rganilmadi. Temur va temuriy shahzodalarning hayoti va faoliyatini yoritishga bag’ishlangan ilmiy tadqiqot asarlarida islom dini omili unutib qoldirilar yoki juda siyqa, yuzaki qarab chiqilardi xolos. Bu esa o’sha katta davrdagi ijtimoiy-siyosiy ahvolga baho berishda mutlaqo xatolarga olib keldi.

⁴ Каримов И. А. Юксак маънавият — энгилмас куч. — Т.: Маънавият, 2008.- б. 9

⁵ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. — Тошкент: Ўзбекистон, 1997. — Б. ?.

Shu tariqa ayrim din arboblari va hatto naqshbandiylik kabi alohida ijtimoiy oqimga nisbatan ham bir tomonlama qarash va uni noto'g'ri anglashga olib keldi.

Buyuk Sohibqiron va uning avlodlari davri ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarini va eng muhimi, ularning o'z davri ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ahamiyatini tadqiq etish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Bu orqali tariximizda yuz bergan bunday yuksak voqelikni haqqoniy baholashdan tashqari, uning mustaqil yurtimiz milliy mafkurasini yo'lga qo'yishda hamkorimiz bo'lib xizmat etishi uchun ham zarurdir.

Amir Temurning islom dinining yirik ruhoniylariga hurmat-e'tibor bilan qaragani, ular bilan muntazam ravishda muloqot va suhbatlar o'tkazgani, hatto ba'zi ulug' shayxlarni o'zining piri deb e'tirof etgani tarixiy manbalar orqali bizgacha yetib kelgan. Shu sababli bo'lsa kerak, ayrim yirik shayxlar Amir Temur davlatining siyosiy hayotiga ham ta'sir o'tkazishga intilishgan va u yoki bu darajada bunga muvaffaq bo'lishgan.

Ma'lumki, Temur va uning avlodlari davrida ruhoniylar daxlsiz hisoblangan. Amir Temurning ruhoniylar vakillari bilan bo'lgan munosabati qator tadqiqotlarda etarlicha yoritilgan deyish mumkin.

Ammo uning XV asrning birinchi yarmida hukmronlik qilgan vorislarining ruhoniylar bilan munosabati yetarlicha yoritilgan deya olmaymiz.

Shu jihatdan, «Temuriylar davlatida tassavuf vakillarining faoliyati (XV asrning birinchi yarmi)» mavzusida yozilayotgan ushbu malakaviy bitiruv ishi dolzarb hisoblanadi.

Mustaqillik tufayli o'tmish madaniyatimiz va qadriyatlarimiz merosini qo'lyozma manbalar asosida xolisona o'rganish, ularni davr talabidan kelib chiqqan holda baholash, yangicha ilmiy tahlil qilishga keng yo'l ochildi. Tasavvuf g'oyalari ham jiddiy tadqiq etila boshlandi, unga oid manbalarni ona tilimizda o'qish imkoniga ega bo'ldik. Buyuk mutafakkir va allomalarning tavallud ayyomlari nishonlandi, maqbaralari tiklandi, ular xaqida kitoblar yozildi, shuningdek, asarlari o'zbek tilida nashr qilindi. Tasavvuf manbalariga oid qo'lyozmalar fixristi tuzildi. Jiddiy tadqiqotlarni jamlagan

to'plamlar nashr qilindi. Bu esa tasavvuf ilmi, uning mohiyatini teranroq anglashga zamin yaratdi. Bu borada mamlakatimizda N.Komilov, R.Nosirov, A.Juzjoniy kabi qator olimlar samarali ijodiy faoliyat olib bordilar va bormoqdalar⁶. Ularning asarlarida tasavvuf va uning rivojlanish bosqichlari, tariqat, ma'rifat, haqiqat, futuvvat, komil inson, shu bilan birga tasavvufning insonparvar jihatlari qo'lyozma manbalar orqali ochib berilgan.

E.E. Karimov⁷, I. Sulton⁸, N. G'oyibov⁹, va D. Salohiylarning¹⁰ tadqiqotlarida esa Temur va temuriylar davri ma'naviy-mafkuraviy jarayonlari va ularning o'z davri ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ahamiyati tadqiq etilgan.

Mustaqillik yillarida tasavvuf ta'limotini o'rganishga bag'ishlangan ishlarni tahlil qilar ekanmiz, mazkur yo'nalishda yaratilgan asarlar orasida xalqimiz tarixida tasavvuf allomalarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rnini aniqlashga bag'ishlangan ishlar ham mavjudligi ko'zga tashlanadi. B.Valixo'jaev, Z.Qutiboev, E.E.Karimov, M.Nuritdinov kabi olimlarning tadqiqotlarida yurtimizda yetishib chiqqan allomalarning tassavuf ta'limoti taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, tariqatda tutgan o'rni, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi faoliyati to'g'risida so'z yuritilgan¹¹.

Asosan yuqorida qayd qilingan tadqiqotlar asosida ushbu malakaviy bitiruv ishimizda XV asrning birinchi yarmida Temuriylar davlatida faoliyat olib borgan tasavvuf vakillari hayoti va ijodini yoritishga harakat qildik.

⁶ Комилов Н. Нажмиддин Кубро. – Т.: А.Қодирий ном. халқ мероси наш., 1995.- 32 б.; Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Мовароуннахр-Ўзбекистон, 2009.- 448 б.; Носиров Р. Тасаввуф таълимоти, унинг моҳияти ва аҳамияти. – Т.: 1996.- 156 б.; Жўзжоний А.Ш. Тасаввуф ва инсон. – Т.: 2003.- 192 б.

⁷ Каримов Э.Э. Темур ва Темурийлар даврида диний-мафкуравий вазият. – Темур ва Улуғбек даври тарихи. – Тошкент: Қомуслар бош таҳ., 1996. – Б. 102-112.

⁸ Султон И. Баҳоуддин Нақшбанд абадияти. – Тошкент: Фан, 1994. – 88 б.

⁹ Гойибов Н. Амир Темур даври маънавияти. – Тошкент: Ғ.Ғулом ном. Адабиёт ва санъат наш., 2001. – 48 б.

¹⁰ Салоҳий Д. Хуррият ҳарорати. – Тошкент: Фан, 2007. – 112 б.

¹¹ Валихўжаев Б. Хожа Аҳрори Вали. – Самарқанд: Зарафшон, 1993. – 152 б.; Буюк маънавий муршид. – Тошкент: Фан, 2004.- 169 б.; Қутибоев З. Хожа Аҳрор Валий. – Тошкент: Фан, 1996. – 156 б.; Каримов Э.Э. Хўжа Аҳрор: ҳаёти ва фаолияти. – Тошкент: Маънавият, 2003. – 48-б.; Нуритдинов М. Юсуф Қорабоғий ва Ўрта Осиёда XV-XVIII асрлардаги ижтимоий-фалсафий фикрлар. – Тошкент: Фан, 1991. – ... б.;

I bob. Temuriylar davridagi tasavvuf tariqatlari haqida qisqacha ma'lumot

1.1. Temuriylar davlatida ma'naviy-mafkuraviy vaziyat

Ma'lumki, Amir Temur hukmdorlik chog'ida o'z tasarrufidagi yerlarni hokimliklarga ajratib, suyurg'ol tariqasida o'z farzandlari, nabiralari va xizmat ko'rsatgan amirlariga in'om qilib, ular orqali boshqargan. Natijada Amir Temur farzandlaridan ayrimlari mustaqillikka intila boshlashdi va o'z yerlaridan kelgan soliq foydalaridan ham o'z xazinalarini boyitishdi. Amir Temur vorislarining ortib borishi esa uning tasarrufidagi yerlarning yanada parchalanishiga olib keldi. O'z navbatida temuriy shahzodalarning o'zlari ham suyurg'ol¹² tariqasida o'z lashkarboshilari, ruhoniylar va boshqalarga yer bo'lishib berdilar. Bular feodal tarqoqlikka olib keldi va markaziy hokimiyat zaiflashdi.

Bunday sharoitda ma'naviy-g'oyaviy birlashtiruvchi kuchga bo'lgan intilish yaqqol namoyon bo'lib qoldi. Turli-tuman va nihoyatda rang-barang bir jamiyatda shunday birlashtiruvchi kuch sifatida esa islom dini yuzaga chiqdi. Zero, o'rta asr odamlari uchun olloh-taolo o'zi yuborgan haqiqatdan boshqa bir haqiqat bo'lishi mumkin emasdi. XIV-XV asr Movarounnahrida bu kuch so'fiylik tariqatlari sifatida yuzaga keldi. Ana shu davrda tasavvuf nafaqat diniy, balki siyosiy ijtimoiy-iqtisodiy hayotda ham mustahkam o'rin egallay boradi. Naqshbandiya tariqati sifatida namoyon bo'lgan so'fiylik esa muayyan bir ta'limot sifatidagina emas, balki g'oyaviy, ma'naviy-huquqiy dunyoqarash sifatida qaror topdi.

Din va siyosatning aloqadorligi qadimdan islom uchun xos. Ma'lumki, islomning yuzaga kelishi omilining o'zi alohida qabilalarning yagona bo'lib birlashishi tendensiyasi bilan bog'liq. Bu aloqadorlik ijtimoiy munosabatlar va mafkura sohasida bo'lgani kabi davlat tuzilishi va ijtimoiy hayotda ham ko'proq yorqin ko'rindi. Bularning hammmasi dunyo hukmronligi g'oyasini ko'zda tutgan Amir Temur hayoti va faoliyati uchun favqulodda xosdir.

¹² Amir Temur Movarounnahrdan tashqari barча ерларни тўрт улусга бўлди: Тўнғич ўғли Муҳаммад Жаҳонгирга Балх, иккинчи ўғли Умаршайхга Форс вилояти, учинчи ўғли Мироншоҳга Озарбайжон, Ироқ ва Арманистон, кенжа ўғли Шохрухга Хуросон, Журжон, Мозандарон, Сеистон. Amir Temur va temuriylar davrida suyurg'ol tizimining pайдо бўлиши va тарқалиши хақида батафсил қаранг: Петрушевский И.П. Очерки по истории феодальных отношений в Азербайджане и Армении в XVI – начале XIX в. – Л.: ?, 1949. – С. 115-183.

Temur tomonidan markazlashgan yagona davlatning barpo etilishi tarixchilar tomonidan ijobiy fakt sifatida qayd etiladi. Ammo uning faoliyati hatto o'z tarafdorlari orasida ham bir xil fikr uyg'otmagan. Sohibqironning solnomachisi Sh.A. Yazdiyning yozishicha, uning harbiy yurishlaridagi "oliy maqsadli o'y-niyatli jihod (muqaddas din uchun urush) uchun mukofotga erishish bilan cheklangan va qamrab olingandi". "Zafarnoma"ni o'qishda juda qiziq faktga duch kelamizki, buni jamoat fikri ta'siri oqibati deb izohlash mumkin. Ali Yazdiy Temur hayoti va faoliyatini maqtab yozgan bo'lsa-da, uning ayrim jihatlari qo'shni mamlakatlarga yurishlariga pardali qilib, o'z salbiy munosabatini bildiradi. Chunki "bu voqealarda dahshatli ishlar, qotilliklar, bosqin, tutqunlik va talon-taroj sodir etildi; bularning hammasi dunyoni zabt etish zaruratidandir".

Temur ta'siri sekin-asta kuchayib borgan diniy-axloqiy mezonlarga rioya qilishga majbur bo'ldi. Ulardan chekinish hatto o'z davrining ramzi bo'lgan Temur uchun ham tanqid va qoralashga sabab bo'lgan. Temur dinni, uning rolini o'z siyosatining axloqiy-mafkuraviy omili sifatida ahamiyatini idrok etganmi? Temurning ruhoniyyat vakillari bilan o'zaro munosabati haqidagi ma'lumotlar juda oz, biroq ular, tashqi jihatdan bo'lsa ham, temuriylar sulolasi asoschisining din obro'-e'tiborini dunyoviy hokimiyat mavqeidan ustun qo'yganligidan guvohlik beradi.

So'fiylik islom dinining alohida har bir shaxs uchun ahamiyatini yuqori ko'tarardi. Tasavvufchilar islom asoslarini o'zgartirmagan holda, uni birinchi qatorga qo'yib, shariat qoidalariga, har bir musulmonning olloh-taolo oldida tengligiga, imonli, insofli, diyonatli, rahm-shafqatli bo'lishga da'vat etdilar. Tasavvufchilarning bunday hayotiy da'vatlari ular atrofida xalq ommasining to'planishiga olib keldi. XIV asrda so'fiylar sarbadorlar harakatida qatnashishlari ham bejiz emasdi. Shu tariqa so'fiylik namoyandalari Temur va temuriylar zamonasida siyosiy hayotda katta mavqe va e'tibor topdilar.

Qur'on, Hadis, Tafsir bilimdonlari bo'lgan dinshunos olimlar barchasi islom diniga xos bo'lgan guruhbozlik tufayli keng xalq ommasini o'zlariga ergashtira olmadilar. O'rta Osiyoda esa bu davrda mazkur vazifani so'fiylik o'z zimmasiga

oldi, ayniqsa naqshbandiylik tariqatining bu borada qo'li baland edi. Albatta bu davrda rasmiy islom namoyandalari mutlaqo o'z mavqelarini boy berdilar deb bo'lmaydi. Ular hanuz feodal hokimlari saroylarida yuksak lavozimlarda xizmat qilishar, davlat ishlariga aralashishar, ijtimoiy hayotda o'z ta'sirlarining ortib borishi uchun kurashishar edilar.

Hayot shuni taqozo etdiki, ulamo sekin-asta ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rnini so'fiylikka bo'shatib bergunga qadar mahalliy jamiyatni shayxxul-islomlar boshqarishdi. Zahiriddin Muhammad Boburning ta'kidlashicha bular "Hidoya" asari muallifi avlodlari edi¹³. Islom zohidchiligi vakillari va "faqihlar" o'rtasidagi qarama-qarshilik uzoq davom etib, shu bilan tugaydiki, o'sha davr mafkurasida so'fiylik asosiy mavqeni egallay boshlaydi. Bu ziddiyat keyinchalik kuchaydi. Diniy omillardan ustalik bilan foydalangan Shohruh o'z hukmronligi davrida yirik ijtimoiy to'qnashuvlar bo'lmasligiga erishgan bo'lsa Ulug'bek bunga muvaffaq bo'lolmadi.

Shayxul-islomlar asosan yig'ilgan joy temuriylar poytaxti Samarqand edi. Temur zamonida shayxul-islom Abu al-Malik, "Hidoya" muallifi Burhoniddin Marg'inoniy avlodidan edi. Abu al-Malik Suhravardiya so'fiylik maktabining taniqli vakili edi.

Keyingi shayxul-islom Abd al-Avval bo'lib, bu zot Abu al-Malikning amakivachchasi va vorisi edi. U o'z yaqin qarindoshi Isom ad-Din bilan birga, ruhoniylar vakillari bilan bir qatorda Temurning Qorabog'ga 1403-1404 yil qishki yurishida eslanadi. Isom ad-Din Abd al-Malikning o'g'li, amakisi Abd al-Avval vorisidir. Burhoniddin, bu shayxul-islomning o'g'li, uning vorisi bo'ldi.

Amir Temur vafotidan keyin uning impyeriyasi feodal urushlar, o'zaro nizolar va sulolaviy janjallar iskanjasida qoldi. Buyuk Temurning taxtini Mironshohning o'g'li Xalil Sulton egallab oldi. Qonuniy valiahd Pirmuhammad taxtni talab qilganda "ulamolar boshliqlarining boshlig'i, sayyidlar va ulug'lardan iborat Movarounnahr boshliqlari ustida tasarruf yurgizuvchi, ulug' amiru zaimlarga o'z hukmlari o'qini tegizuvchi ulug' kishi" Xoja Abdulavval Pirmuhammadni

¹³ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи Порсо Шамсиев. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – Б. 24.

qoralab, Xalil Sultonni g'olib hisobladi. Keyinchalik, o'zaro kelishmovchiliklarning hal qiluvchi paytida, Xalil Sulton mag'lubiyatga uchragach, Abd al-Avval Samarqanddagi hokimiyatni Shohruhga beradi. Ibn Arabshohning yozishicha “uning rayosati (payti)da ikki odam orasida ixtilof chiqmadi va raiya ustida hukm yuritishda “ikki syerka suzishmadi”. Uning ishorati amru nahiya bilinib, farmonlari ariqlari xalq orasida to'xtovsiz oqib, o'sha o'tgan kunlarda uning amrlari itoatda bo'ldi”¹⁴.

Movarounnahrda oliy hokimiyat uchun kurashda din ahli qo'llab-quvvatlashi katta ahamiyatga ega edi. Temur vafotidan so'ng Samarqand taxtini Xalil Sulton egallaydi. Uning qisqa hukmronlik davri yaxshi o'rganilgan bo'lsa-da¹⁵, bu temuriyzodaning sururbaxsh hayoti, olijanob harbiy iqboldori, xotini SHodimulkka hayratlanarli muhabbati og'ushida tasvirlangan shaxsi qo'shimcha tadqiqot talab etadi.

Xalil Sulton siyosatchi sifatida muvaffaqiyatsizlikka uchradi. U o'z faoliyati natijasida “...din ahli va o'sha paytda xalq orasida katta ta'sirga ega bo'lgan naqshbandiya darveshlik tariqati qo'llab-quvvatlashidan mahrum bo'ldi”¹⁶. Shu munosabat bilan “Rashahot”da tasvirlangan afsonaviy voqeani ko'rib chiqish mumkin. U hujjatli tasdiqqa ega emas, biroq Xalil Sulton bilan din ahli o'rtasidagi munosabat ancha buzilganligini ko'rsatadi. Gap Shohruhning naqshbandiya tariqatining yirik vakili Muhammad Porso bilan aloqalari haqida boradi:

“Amir Temur o'g'li Mir Muhammad Jahongir o'g'li Mirzo Xalil Samarqandda podshohlik paytida, Mirzo Shohruh esa Xurosondaligida Muhammad Porso vaqti-vag'ti bilan Shohruhga musulmonlarning muhim ishlari bo'yicha yozib turgan. Mirzo Xalil bundan norozi edi. Xullas, (Xalil) hasadgo'y kishilar chaquvi bilan, qattiq xafa bo'lib, buxoroga eshon huzuriga farmoyish bilan odam yo'lladi: “Siz sahro tomon yo'l olishingiz kyerak, toki aholi sizning

¹⁴ Ибн Арабшох. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи таймур. Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳларни филология фан. ном. У.Уватов тайёрлаган. 2 китоб. – Тошкент: Мехнат, 1992. – Б. 59-60.

¹⁵ Бартольд В.В. Улугбек и его время. Соч. В 9 т. – М.: Наука, 1964. Т. 2. Ч. 2. – С. 72-87.; Ахмедов Б.А. Улугбек и политическая жизнь Мавераннахра XV в. В сб.: Из истории эпохи Улугбека. – Ташкент: Наука, 1965. – С. 14-25.

¹⁶ Ахмедов Б.А. Улугбек и политическая жизнь Мавераннахра XV в. В сб.: Из истории эпохи Улугбека. – Ташкент: Наука, 1965. – С. 24.

yorlaqagan qadamingiz bilan islomga kirsin” eshon rozi bo’ladi, biroq, avvalo mavlono Abdulrahim hikoya qilishicha, o’z izdoshlari hamrohligida o’sha zahoti otga minib hazrat Xoja Buzurg mozori ziyoratiga jo’naydi. Keyin Sayid Amir Kulol maqbarasi tomon yo’l olib, bu yerda yuqoriga ko’tarilib, Xuroson tomonga qarab “Endi kim cho’qqiga chiqadi va kim pastga qulaydi” mazmunidagi baytni o’qiydi. So’ngra Buxoroga qaytadi. Bu paytda Mirzo Shohruhdan Mirzo Xalil uchun maktub kelgandi. Uning mazmunida jang maydoni aniqlanishi talabi bor edi. Eshon talab qiladiki, mu maktubni avvalo bosh masjid minbaridan o’qishsin, so’ngra Samarqandga Mirzo Xalilga yuborilsin. So’ngra Shohruh etib kelib Xalil Sultonga barham berdi”¹⁷.

Shunday qilib din ahli naqshbandiya shayxlari timsolida temuriylar saltanatida oliy hokimiyat uchun kurashda Shohruh tomonini olishdi va Xalil Sultonning Samarqand taxtidan ag’darilishini yoqlab chiqishdi.

Sohibqiron faoliyati bilan bir vaqtda vujudga kelgan naqshbandiya ta’limoti Amir Temur va temuriylar davrida o’zini amaliy jihatdan syermahsul va ilmiy-nazariy jihatdan katta taraqqiyot davrini boshidan kechirdi.

Biz ushbu davrdagi dinni ijtimoiy-tashkilot tizimi sifatida ko’rmoqdamiz. Temuriylar davrida islom aynan shu vazifalarni o’ziga qabul qilganini hisobga olsak, bayon etilayotgan ruhoniylar shaxs va so’fiylik tariqatlari vakillari faoliyati jamiyatda ijtimoiy muvozanat saqlanishining nozik va amaldagi shaklidir. Rasmiy musulmon ruhoniylari bunday usullarni egallashdan o’jiz edi. Mamlakat aholisining asosiy qismi ijtimoiy pog’onalari ancha yaqin bo’lgan so’fiylik vakillari maqsadga etib boradigan ancha o’tkir va aniq harakatlarga qobil edi. Shu munosabat bilan bayon etilayotgan Movarounnahr hayotidagi din va siyosatning o’zaro bog’liqligi dunyoviy feodal hukmdorlar va ruhoniylar shaxslar o’zaro munosabati va ta’siri, siyosiy muvoffaqiyat va omadsizliklari alohida e’tiborga sazovor.

¹⁷ Фахруддин Али Сафий. Рашахоту айнил-хаёт (Обихаёт томчилари). Таржимон домла Худойберган ибн Муҳаммад (XIX аср). Нашрга тайёрловчилар М.Ҳасаний, Б.Умрзоқ. Масъул муҳаррир Б.Умрзоқ. – Т.: Абу Али Ибн Сино ном. тиббиёт наш., 2004.

Ushbu davr mafkurasida so'fiylik asosiy mavqeni egallay boshlaydi. So'fiylik vakillari bilan ulamo, "faqihlar" o'rtasidagi raqobat o'zaro ziddiyatni kuchaytirdi. Diniy omillardan ustalik bilan foydalangan Shohruh o'z hukmronligi davrida yirik ijtimoiy to'qnashuvlar bo'lmasligiga erishgan bo'lsa Ulug'bek bunga muvaffaq bo'lmadi.

Ulug'bek davrida muhtasiblik qilgan Sayyid Oshiq shayxul-islom Isom ad-Dinga qarshi chiqib, uni diniy qoidalarni buzganlik va shariatdan chekinganlikda ayblaydi. Shuni aytish kyerakki, Samarqand shayxul-islomlari aholining yuqori tabaqa vakillaridan edi. Ularning hashamdor turmush darajasi shariat axloqi qoidalariga to'g'ri kelmas va ruhoniylarning o'zlari orasida norozilik o'yg'otgandi. Muhtasib Sayyid Oshiqning shayxul-islom bilan mojarosi bunga yaqqol dalildir.

Islom zohidligi vakillari bunga qarama-qarshi tarzda chiqishdi. V.V. Bartol'dning yozishicha, "O'rta Osiyoda darveshlar... hukumat va boylar sinfi bilan shariat uchun kurash olib borgan va diniy qoidalarning buzilishida nafaqat hukmdor va zodagonlarni, "Hidoya" asari muallifi avlodlari bo'lgan samarqandlik shayxul-islomlar boshchiligidagi kitobiy ruhoniylar vakillarini ham fosh etishgan".

Shohruh hayotida din ahli muhim ahamiyat kasb etdi. Temur farzandi diniy omil ahamiyati va kuchiga munosib baho berdi va mamlakati siyosiy, ijtimoiy hayotida undan oqilona foydalandi.

Samarqandda, Ulug'bek davridagi sharoit Hirotdagidan farqlanardi. Aftidan Samarqand saroyi davr talabini hisobga ololmadi. Samarqand toji sohibi islomga shon keltirdi deb sira aytib bo'lmaydi. Lekin fakt shuki, Ulug'bek va yuqori tabaqa doiralari, o'sha davr yozma manbalari xabar berishicha, axloq-odob qoidalarini nazarga olmay bu bilan dinni o'ziga qarshi qilib qo'ygan. Saroyning so'fiylik tariqatlari arboblari bilan o'zaro munosabatlari juda murakkab bo'lgan.

Bunday sharoitda keng omma, axloqiy qoidalar va mafkuraviy maslamlarni egallagan so'fiylik qarshilik tarafdorlari boshida turdi. Shu munosabat bilan Ulug'bek saroyi va so'fiylik tariqatlari arboblari o'rtasidagi ko'plab mojaro va to'qnashuvlar guvohliklari e'tiborni tortadi. V.V. Bartol'd qayd etadi: "Hatto Buxoro darveshlari boshlig'i shayx Muhammad Porso, Xalil Sultonning

ag'darilishi aybdorlaridan biri, demakki, Ulug'bekning taxtga kelishiga sababchi bo'lgan kishi, uning va shayxul-islom iltifotidan foydalanmadi"¹⁸. Bu haqda "Rashahot"dagi hikoyat guvohlik beradi:

Ulug'bek farmoyishi bilan Muhammad Porso Samarqandga «isnod»ni tekshirish uchun chaqiriladi. Tekshirishda shayxul-islom Isomiddin qatnashadi. Porsoni sinovdan o'tkazgan Shamsiddin Muhammad ibn Muhammad al-Jaziriya qaysidir isnodlardan biri shubhali tuyulganda, u shayxul-islom kutubxonasida tegishli isnodi bo'lgan hadis keltirilgan kitobni so'rab, uning betigacha aniq aytib bergan. "Rashahot" muallifining eslatib o'tishicha, Muhammad Porso go'yo shayxul-islom kutubxonasida ilgari sira bo'lmagan¹⁹.

Mirzo Ulug'bekning Samarqandda faoliyat yuritgan naqshbandiya tariqatining rahnamosi Nizomiddin Xomush bilan munosabati ham bir tekis kechmagan.

Ushbu davrda so'fiylik mafkurasi keng omma talabva ehtiyojlariga ancha aniq javob bergan. Tangri – yagona olloh oldida barcha mo'minlarning tengligi g'oyasi davri-davri bilan bu jamiyatda kuchayib turdi.

Juda katta mablag'lar talab etgan saroydagi zeb-ziynat, to'kin ziyofatlar, ko'pchilikka tushunarsiz ilmiy mashg'ulotlar, ko'pgina siyosiy xatolar qandaydir darajada Ulug'bek hukmdorligini tezda emirdi.

Shohruh "shariat ixlosmandi" degan sharafiga sazovor bo'ldi. Ulug'bek ham islom qoidalari doirasida hukmdorlik qilgan, biroq mo'g'ul-chig'atoy boshqaruv tizimiga e'tibor bergan, mo'g'ul an'analarini qadrlagan va saqlagan²⁰. Abdurazzoq Samarqandiy Shohruhni "din himoyachisi podshohi" deb ataydi. U "Matla' us-sa'dayn..." asarida asl nomlarni har bir hukmdorga beriladigan sifatlar bilan o'zgartirib beradi. Shohruh o'z ishlari va hukmdorlik xususiyatlariga ko'ra "hazrati hoqoni sayid" laqabini olgan.

¹⁸ Бартольд В.В. Улугбек и его время. Соч. В 9 т. – М.: Наука, 1964. Т. 2. Ч. 2. – С. 122.

¹⁹ Фахруддин Али Сафий. Рашахоту айнил-хаёт (Обихаёт томчилари). Таржимон домла Худойберган ибн Муҳаммад (XIX аср). Нашрга тайёрловчилар М.Ҳасаний, Б.Умрзоқ. Масъул муҳаррир Б.Умрзоқ. – Т.: Абу Али Ибн Сино ном. тиббиёт наш., 2004. - б. 60

²⁰ Бартольд В.В. Улугбек и его время. Соч. В 9 т. – М.: Наука, 1964. Т. 2. Ч. 2. – С. 97, 120-121.

Shohruh saltanatni boshqargan Hirot hayoti islom huquqiy normalariga muvofiq kechardi, o'sha yillar voqealari tarixiy solnomalarda aks ettirilishicha, "musulmonlar podshosi"²¹ shariatning hamma qoidalarini aniq bajargan. Juma kunlari oddiy musulmon kabi olomondan ajralmay masjidga qatnagan, ro'za tutgan va ichkilik ichishni man etgan.

Hirotda katta huquqlarga ega bo'lgan mutaassiblar islom qoidaviy talablari bajarilishini qattiq kuzatishgan. Bu o'rinda qo'lyozma manbalarda uchraydigan, Havofiy²² aytmogchi islom himoyachisi Shohruhni bo'rttirilgan tarzda Ulug'bekka qarama-qarshi qo'yishni eslab o'tish joiz. Bu, din ahli muayyan qismi siyosiy va mafkuraviy targ'ibotining muhim jihati bo'lib, u Ulug'bekning "islom" hukmdori sifatida nochorligini ta'kidlab, keyinchalik uning Samarqand taxtidan ag'darilishini oqladi.

So'fiylik kitobiy dinchilik ustidan g'alaba qozongan davr bo'ldi. Ko'pchilik tarixiy manbalarda, jumladan, "Rashahot"da bu jarayon misollarda keltirilgan. As-Safiy Xo'ja Ahrorning shogirdi Abu Sayid Ubayhiy haqida yozadi. U dastlab Ulug'bek madrasasida ta'lim oladi. So'ngra kitobiy ilmlardan ko'ngli qolib, Xo'ja Ahror bilan tanishadi. Abu Sayid tariqat yo'lidan boradi, xonasida qolgan kitob va buyumlarni madrasadagi o'rtoqlariga in'om etadi.

Mazkur misol o'sha davrga anchayin xos xususiyatlardan edi. So'fiylik g'oyalari ushbu davr ijtimoiy tafakkuriga o'lkan ta'sir ko'rsatgan. Ulardan mavjud jamiyatning o'tkir ijtimoiy ziddiyatlarini hal etishda foydalanilgan. Bularning hammasini O'rta Osiyo jamiyatining keng qatlamalarini qamrab olgan o'ziga xos harakatlarga qiyos etish mumkin. Bu jarayon XV asr ikkinchi yarmida, Movarounnahr jamiyatida naqshbandiya suluki va uning mashhur arbobi Xo'ja Ahror etakchi mavqega ega bo'lganda o'z cho'qqisiga ko'tarilgan. Bu zotning yorqin hayoti, syerg'ayrat faoliyati, diniy-falsafiy, axloqiy va ijtimoiy qarashlari tizimi tarixga kirdi.

²¹ Шоҳрухга «Рашаҳот»да шундай сифат берилган, 294 б.

²² Фасих Ахмад ибн Джалал ад-Дин Мухаммад ал Хавафи. Муджмал-и Фасихи (Фасихов свод). Перевод, предисловие, примечания и указатели Д.Ю. Юсуповой. – Ташкент: Фан, 1980. – С. 240.; Материалы по истории Средней и Центральной Азии Т., 1988, с. 167

Mazkur davrdagi iqtisodiy va mafkuraviy muhit nihoyatda murakkab bo'lgan. Ustinlikka ega bo'lish uchun olib borilgan kurash, ig'vo, xiyonat va suiqaedlar faqat hokim tabaqa o'rtasidagina emas, balki shariat peshvolari orasida ham avj olgan. Natijada xalq ommasini, mehnat ahli azob-uqubatlarga giriftor bo'lgan, qiynalgan, og'ir ahvolda kun kechirgan. SHoirilar tasvirlaganidek, vafo anqo urug'idek topilmas, adolat orzudagina, samimiyat xayoldagina, o'zaro qardoshlik va rahmu-shafqat qog'ozdagina bo'lgan edi u zamon²³.

Ulug'bek davri diniy va dunyoviy bilimlarni izchil rivojlanganligi, diniy va dunyoviy arboblarning o'rtasidagi hamda, Qur'on, Hadis, Tafsir bilimdonlari bo'lgan, rasmiy islom namoyandalari bilan so'fiylik namoyandalari o'rtasidagi raqobat kuchayganligi bilan ajralib turadi. Bu davrda «ruhoniylar shaxs va so'fiylik tariqatlari vakillari faoliyati – jamiyatda ijtimoiy muvozanat saqlanishining nozik va amaldagi shaklidir. Rasmiy musulmon ruhoniylari bunday usullarni egallashdan o'jiz edi. Mamlakat aholisining asosiy qismi ijtimoiy pog'onalariga ancha yaqin bo'lgan so'fiylik vakillari maqsadga etib boradigan ancha o'tkir va aniq harakatlarga qobil edi». Natijada o'sha davr mafkurasida so'fiylik asosiy mavqeni egallay boshlaydi. Bu jarayon XV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr jamiyatida Xoja Ahror etakchi mavqega ega bo'lganda o'z cho'qqisiga ko'tariladi.

Ulug'bek shayx va sayidlarning davlat ishlaridagi faoliyatlarini ijobiy baholab, saltanatdagi muvaffaqiyatlar aynan shu toifa kishilarning fatvolari natijasi ekanligini bayon qiladi. Ulug'bekning yozishicha, «... Uljoytu Sulton Chingiziy sultonlarining ko'pchiligidan adolat bisotining hozirlanishi, shariat qonunlarining mustahkamlanishida batamom imtiyozga ega edi. O'z davlati ayyomini Sayyidlaru (v. 146 b) ulamolar, sahobalari tartibotidan, to'g'rilik va fatvodan deb tushundi»²⁴.

XV asrning birinchi yarmida hukmronlik qilgan temuriylarning tasavvuf vakillari bilan munosabati keyingi bobda yoritiladi.

²³ Валихўжаев Б. Хожа Ахрори Вали. – Самарқанд: Зарафшон, 1993. – Б. 34.

²⁴ Саидбоев Т.С. Ислам и общество. – М.: Наука, 1984. – С. 75.

1.2. Tasavvuf ta'limoti va uning yo'nalishlari

Kubraviya tariqati tasavvuf ta'limotining bir yo'nalishi bo'lib, uning mazmun-mohiyati haqida so'z yuritishdan oldin tasavvuf tarixiga qisqacha to'xtalib o'tish lozim. Zero tasavvuf o'zi nima, u qachon paydo bo'lgan, uning maqsadi va vazifalari nimadan iborat ekanligini bilmasdan turib, kubraviya tariqatining mohiyatini tushunib bo'lmaydi.

Tasavvuf ta'limoti va uning mohiyatini anglash va tadqiq etish uchun avvalo tasavvuf tarixining muhim manbalarini bilish kerak. Ammo shuni aytish lozimki, bu manbalarning miqdori juda ko'p bo'lib, ularning barchasiga to'xtalishning imkoni yo'q. Tasavvuf tarixining muhim manbalarini etti guruhga (tasavvufiy-falsafiy asarlar, tasavvuf ilmini izohlagan asarlar, tabaqoti sufiya kitoblari, manoqib kitoblari, odob va arkon kitoblari, she'riy tasavvufiy asarlar, tasavvufiy tafsirlar) tasniflagan tasavvufshunos U.Turarning yozishicha "Tasavvuf tarixining manbalari, albatta bu erda aytilganlardangina iborat emasdir. Ular sanog'ini behad orttirish mumkin, chunki tasnifimizga kirmagan minglab tasavvufiy asarlar mavjuddir. Xususan, bevosita tasavvuf tarixiga oid asarlardan tashqari, bilvosita bu sohani yorituvchi ko'plab asarlar ham mavjud. Masalan, "tarix"lar, "monografiya"lar, "tazkira"lar, "shohrangiz"lar, "qomus"lar, "sayohatnoma"lar va hokazolar ham bilvosita tasavvuf tarixining manbalarini tashkil etadi. Tadqiqotchilar bu asarlardan foydalanishni ham unutmashligi kerak"²⁵.

Tasavvuf tadrijiy taraqqiyotga ega ta'limot bo'lib, islom olamida VIII asrning o'rtalarida paydo bo'lgan. Dastlab u zohidlik harakati ko'rinishida kurtak yoyadi. Gap shundaki, hazrat Muhammad Mustafo (s. a. v.) vafotlaridan keyin musulmonlar jamoasi ichida bo'linish yuz beradi, ayniqsa xalifa Usmon zamonida boylikka ruju qo'yish, qimmatbaho tuhfarlar bilan qarindosh-urug'lar, yaqin do'st-birodarlarni siylash rasm bo'ladi. Ummaviya xalifaligi davriga kelib esa, saroy hashamlari, dabdabali bezaklar, oltin kumushga berilish, xazina to'plash avj oldi. Ya'ni diniy mashg'ulotlar, Xudo yo'lidagi taot-ibodat o'rnini dunyoviy ishlar, dunyo moliga muhabbat egallay boshladi. Bu hol diniy amrlarni ado etishni har

²⁵ Турар Усмон. Тасаввуф тарихи. – Т.: Истиқлол, 1999.- б. 15-16

qanday dunyoviy ishlar, boyliklardan ustun qo'ygan e'tiqodli kishilarning noroziligiga sabab bo'ldi²⁶.

Dastlab boylikka ruju qo'ygan jamiyat qarashlariga zid ish tutib, payg'ambar sunnatlariga qat'iy amal qilib o'z maslaklarida sobit bo'lgan bir guruh zohidlar tomonidan asos solingan diniy-falsafiy dunyoqarash asta-sekinlik bilan rivojlanib, mukammallasha bordi va butun musulmon dunyosining ma'naviy hayotining etakchi ta'limotiga aylandi.

Tasavvuf ta'limoti haqida fikr yuritganda uning bir qator nozik nuqtalari, bahstlab masalalari, istilohlari borki, ularga to'xtalmay turib, biz tadqiq etayotgan mavzu mohiyatiga oydinlik kiritib bo'lmaydi.

So'fiy va tasavvuf so'zlarining kelib chiqishi va islomiy atama sifatida qat'iylashuvi haqida manbalarda turli xil qarashlar keltirilgan. Bu istilohlarning ma'nosiga berilgan ta'riflar mazkur ta'limotning u yoki bu xususiyati bilan bog'liq. Ko'pchilik so'fiy so'zi arabcha "suf" so'zidan hosil bo'lgan, degan fikrni bildiradilar. "Suf" so'zining lug'aviy ma'nosi jun va jundan to'qilgan matodir. So'fiylar ko'p hollarda jun chakmon yoki qo'y terisidan tikilgan po'stin kiyib yurishni odat qilganlari uchun ularni so'fiy deb yuritganlar. Bu ta'rif ancha asosli bo'lib, haqiqatga mos keladi. So'fiy so'zining "suf" so'zidan yasalganligi arab tili qoidalariga ham to'g'ri keladi. Jun libosli kiyim kiygan kishilarga nisbatan ishlatilgan bu so'z keyinchalik shu yo'nalishdagi kishilarga nisbatan ham qo'llanila boshladi. So'fiylik qonun-qoidalariga amal qilgan kishi so'fiy, u yurgan yo'l, u amal qilgan ta'limot esa tasavvuf deb ataladi.

Musulmon xalqlari hayotida muhim o'rin egallagan tasavvuf ta'limoti, uning ijtimoiy mohiyati va g'oyasi to'g'risida bildirilgan fikrlar, tasavvufga berilgan ta'riflar deyarli bir-biridan farq qilmaydi. Bu fikrlar biri-birini to'ldirib, mukammallashtirib, umumiy bir nuqtaga birlashadi. Tasavvuf haqidagi fikrlarni umumlashtirsak, uning bosh maqsadi bandani Alloh roziligiga erishtirish, nafsini jilovlash, shariat qoidalariga amal qilish, Alloh va payg'ambar (s.a.v.) xulqi bilan axloqlashtirish ekanligi ma'lum bo'ladi. Insonni ma'naviy komillikka etaklovchi

²⁶ Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Мовароуннахр-Ўзбекистон, 2009.- б. 9

tasavvuf ta'limotining xalq orasida keng yoyilishi, jamiyat va davlat boshqaruvida etakchi o'rin egallashining ham asosiy sababi shundadir.

Manbalarda ta'kidlanishicha, insonning ma'naviy komillikka etishishi, Alloh roziligiga erishishi uchun ma'lum bir bosqichlarni bosib o'tishi lozim bo'ladi. Tasavvuf ahli Allohga eltuvchi yo'lni to'rt bosqichga ajratib, birinchisini – shariat; ikkinchisini – tariqat; uchinchisini – ma'rifat; to'rtinchisini – haqiqat deb atagan.

Shariat ochiq, hayot manbaiga eltuvchi to'g'ri yo'l, qonun, zohiriy hukmlar majmuasi kabi ma'nolarni ifodalaydi. Istilohiy jihatdan: Allohning amri, oyat, hadis, ijmoi ummat va qiyosi fiqaho asoslariga tayangan din qoidalari degan ma'noni anglatadi. Tariqat so'zi ham lug'aviy jihatdan shariat so'zi kabi yo'l ma'nosini anglatadi. Ya'ni ilohiy ma'rifatni egallashga bel bog'lagan kishining ruhiy-axloqiy kamolot yo'li. V.A. Jukovskiy ta'kidlaganidek, “shariat – qonun, tariqat – yo'l. Qonun vujud va qalbni tarbiyalaydi, yo'l ko'ngilni poklab, ruhni nurlantiradi”²⁷.

Yuqorida keltirilgan ta'rifda shariatning mohiyati aniq ifodalab berilgan. Ko'rinadiki, shariat inson hatti-harakati, amallarining zohiriy tomonlarini ma'lum bir tartibga solib, nazorat qilib tursa, ma'naviy komillikni egallashdagi navbatdagi bosqich tariqat insonning ko'ngli, ichki dunyosi, ruhiyati bilan bog'liq jihatlar to'g'risida so'z yuritadi. Shariat islom dinidagi hamma kishilar uchun birday amal qilinishi lozim bo'lgan tartib-qoidalarini o'zida jamlagan bo'lsa, tariqat bevosita inson ruhiyati bilan bog'liq bo'lib, uning ham o'ziga xos talab va qoidalari mavjud. Ular shariat tartib-qoidalaridan farqlanib turadi.

Tariqatda maqomot va hol tushunchalari eng asosiy tushunchalar hisoblanadi. “Maqomot” – maqom (manzil, bekat) so'zining ko'pligi bo'lib, solikning, ya'ni, tariqatga kirgan kishining ruhiy-ma'naviy kamoloti bosqichlarini anglatadi. Abu Nasr Sarroj tariqatda tavba, vara', zuhd, faqr, sabr, xavf, rajo, tavakkul, rizo kabi maqomlar mavjudligini qayd etgan deb yozgan tasavvufshunos olim Najmiddin Komilov ularning har birini sharhlab bergan.

²⁷ Бухорий С.С. Дилда ёр. – Т.: Ф. Ғулом ном. Адабиёт ва санъат наш., 1993.- б. 22

Yuqorida qayd etib o'tilgan maqomlarni har bir kishi tinimsiz harakat, o'z bilimini muntazam ravishda oshirish uchun tirishish va buning uchun pir tomonidan belgilab qo'yilgan qoidalarga qat'iy amal qilish orqali egallashi mumkin. Lekin tariqatning asosini tashkil qiluvchi "hol"ga erishish, uning qurb, muhabbat, shavq, uns, mujohida, mushohida, mukoshifa kabi bosqichlarini o'qib-o'rganib yoki sa'y-harakat qilish bilan qo'lga kiritib bo'lmaydi. U so'fiyga Alloh tomonidan beriladigan ilohiy tuhfa, nasiba hisoblanadi. Hol (ko'pligi ahvol) – so'fiy qalbida ruhiy taraqqiyot natijasida beixtiyor o'z-o'zidan paydo bo'ladigan qisqa muddatli kechinma, qalbning porlashi, ilohiy rahmat va barakatning nuzul bo'lishi, quyilib kelishidir. U Haq tuhfasini va hadyasi bo'lib, insonning irodasi va harakatiga tobe emas.

"Hol ruhiyat bilan bog'liq bo'lgani uchun u tasavvufda maxsus ilm – ilmi hol orqali o'rganilgan. Tasavvuf ahli orasida "ilmi qol" va "ilmi hol" degan tushunchalar bo'lgan. "Ilmi qol" til bilan ifodalasa bo'ladigan ilmlar, ya'ni zohiriy ilmlar, chunonchi, shariat ilmi ham shunga kirgan. "Ilmi hol" esa insondagi so'z bilan tushuntirib bo'lmaydigan g'aroyib ruhiy kechinmalar, favqulodda fe'l-atvor, xislatlarning namoyon bo'lishidir"²⁸. Agar chuqur mulohaza yuritiladigan bo'linsa, shaxsiy sa'y-harakatlar bilan ilohiy nurdan ilhomlanishning qo'shilishi – bu doimiy kundalik tajriba mahsuli ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Ko'z oldimizda mashaqqatli tajriba olib borish jarayonida birdan tadqiq qilinayotgan muammoning echimini intuitiv hissiyot alangasi orqali topgan olim siymosini tasavvur qilib ko'raylik. Biroq bilamizki, uzoq, og'ir mashqlarsiz alanga o'z-o'zidan bo'lmaydi. Shuning uchun ham bu kabi ilhomlanish kishiga go'yo mujizali in'om bo'lib ko'rinadi"²⁹.

Xullas, tariqat – insonlarning maxsus ta'lim-tarbiya bilan go'zal axloq, pokiza qalb va latif ruh sohibi etadigan, oxir-oqibatda esa Allohga yaqinlikni ta'minlaydigan o'ziga xos maslak va mafkura yo'lidir. Shariat hukmlariga amal qilib, ikki dunyo saodatiga erishsa bo'ladi. Ammo to'la ma'nodagi ma'naviy

²⁸ Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Мовароуннахр-Ўзбекистон, 2009.- б. 31

²⁹ Тримингэм Дж.С. Суфийские ордены в исламе. – М.: Наука, 1989.- с. 119

etuklikka erishish uchun, Alloh ma'rifatini har tomonlama o'rganish uchun, yanada barkamol bir darajaga etish uchun tariqat yo'liga kiradilar.

Komillikka etishishning keyingi bosqichi ma'rifat hisoblanadi. Tasavvuf yo'liga kirgan, shariat va tariqat maqomlarini bosib o'tgan solik, ya'ni so'fiy dastlab o'zini (o'z nafsini) taniydi va shu orqali Allohning zoti va sifatlarini tobora aniq bila boradi, hol sirlari, ilohiy haqiqatlar va ularning mohiyati unga ayon bo'ladi. Ma'rifat so'zi arabcha "arafa" – bilmoq so'zidan yasalgan bo'lib, tariqatning hosilasi va bevosita davomidir. Boshqacha aytganda, tariqatdan maqsad ma'rifatdir.

Tasavvufning eng so'nggi bosqichi bu – haqiqat bosqichidir. Tasavvufda unga shunday ta'rif beriladi: "Haqiqat chindan mavjud bo'lgan narsa, asl mohiyat Allohni bilish. Borliq olam sirlarini to'g'ri va teran idrok aylash. Haqiqat – shariatning botishidir. Shuning uchun haqiqat tasavvuf ma'nosida ham keng qo'llanilgan".

Hazrat payg'ambarimiz "Shariat – bir daraxtdur, tariqat – mevalari. Daraxt bo'lmasa, novda ham, yaproq ham, meva ham bo'lmaydi", deya ta'lim berganlar. Shuning uchun so'fiylar shariatni tamal, ya'ni poydevor, tariqat, ma'rifat va haqiqatni shu poydevor ustida yuksalgan uch qavatli bir imorat shaklida tasavvur qilganlar.

Biz yuqorida ko'rib o'tgan bosqichlar insonni komillik darajasiga etishishni ta'minlovchi asosiy yo'l bo'lib, mavjud adabiyotlarda ularning maqomlari soni va nomlanishida turfa xilliklar mavjud bo'lsa-da, ularda bir maqsad – insonni jismoniy va ma'naviy poklikka undash, nafsni jilovlash, islom dini qonun-qoidalari va Qur'on g'oyalariga amal qilish, Alloh va Muhammad (s.a.v.) xulqi bilan axloqlashtirish hamda shu orqali Alloh rizoligiga erishtirish yotadi.

Tasavvuf ta'limotining asl mohiyati insonni poklashga qaratilgan. "Tasavvuf ahlining asl yo'li – fe'l va tark uzra nafsini hisob-kitob qilish va mushohadalar natijasida hosil bo'lgan zavqu vajd hollari haqida so'z yuritishdan iborat. Shu holda ularning o'zlariga xos ba'zi odobu usullari, o'zaro ishlatiladigan ma'lum istilohlar bor. Chunki lug'atlardagi kalimalar faqatgina hamma

anglaydigan ma'nolarga dalil bo'lganidan, hamma anglamaydigan ma'no paydo bo'lgach, uni ifodalaydigan ta'bir va istiloh qidirib topilishi tabiiydir. Ana shu tarzda faqatgina mutasavviflarga xos bo'lib, oddiy shariat ahli bilmaydigan tasavvuf ilmi yuzaga keldi va shariat ilmi ham ikki qismga ajraldi: biri faqih va fatvo ahliga xos bo'lgan fiqh ilmi bo'lib, barcha musulmonlar bilishi zarur bo'lgan ibodatlar: islomiy muammolar shular jumlasidandir. Ikkinchisi esa, toat-ibodatlar mujohadasi tufayli paydo bo'lgan zavqu vajd bo'lib, bularning biridan ikkinchisiga yuksalishining mohiyati va bularga tegishli istilohlarning izohlanishidan iboratdir. Ilmlar asta-sekin ko'ngillardan satrlarga ko'chib, fiqh, usuli fiqh, kalom, tafsir va hokazo ilmlarga oid asarlar yozila boshlanganida, tasavvuf yo'liga mansub kishilar ham o'z tariqatlariga doir asarlar bita boshladilar. Ularning ba'zilar vara' taqvo, axz va tarkka ahamiyat berib, nafs haqida kitoblar yozdilar³⁰.

O'ylaymizki, yuqorida bayon qilingan fikrlar tasavvuf ilmining mohiyatini, uning ta'limot sifatida shakllanish sabablarini to'g'ri va aniq izohlab bergan.

Tasavvuf ta'limotining paydo bo'lishi, uning oziqlanish manbalari to'g'risida turli qarashlar mavjud. Ko'pchilik uni g'arb mistisizmi bilan bog'lasa, boshqa birlari uning Erondan yoki Hinddan, ayrimlar esa yangi Aflotunchilikdan, ibroniy-nasroniylikdan kelib chiqqanligi haqida da'vo qiladilar. Bu da'volarnig asossizligi manbalarda isbotlab berilgan, bu sohaga oid tadqiqotlarda izohlangan. Tasavvufshunos N.Komilovning yozishicha "Tasavvuf amaliyoti va falsafasida bu buloqlarning samarali ta'siri bo'lishi mumkin. Lekin shuni ta'kidlamochimizki, islomiy tasavvuf o'zi o'zlashtirgan jamiki narsalarni islom ruhida qayta ishlab, shariatga muvofiqlashtirgan"³¹.

Tasavvuf ta'limotining asosiy manbasi Qur'on³² hisoblanadi. Jahon xalqlari falsafasi, ma'naviyati, madaniyati asosida, u qaysi xalq bo'lishidan qat'iy nazar, u yoki bu muqaddas kitob, ya'ni Zabur, Tavrot, Injil yoki Qur'on g'oyalariga tayanish yotadi. Insonning pok yashashga undash, nafsni jilovlash, Allohning zoti va sifatlarini bilish, Allohning birligi va borligi, Muhammad (s.a.v.) uning oxirgi

³⁰ Турар Усмон. Тасаввуф тарихи. – Т.: Истиқлол, 1999.- б. 24-25

³¹ Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Мовароуннахр-Ўзбекистон, 2009.- б. 16

³² Куръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. Қайта ишланган 2-нашр. Таржима ва тафсир муаллифи Шайх Абдулазиз Мансур. – Т.: Тошкент ислом университети, 2006.

elchisi ekanligi farishtalarning, qiyomat, jannat va do'zaxning, o'lgandan so'ng tirilib savol-javobdan o'tish va shu asosda insoning mangu hayotdagi o'zni belgilanishiga ishonitirish Qur'onning asosiy g'oyalari hisoblanadi. Qur'on uslubi o'ziga xos bo'lib, unda o'zni bilan payg'ambarlar hayoti ibrat namunasi sifatida keltiriladi. Gunohlar tufayli azoblanishdan ogohlantirish, qo'rqitish, Alloh rahmatidan umidvor bo'lishga undash o'ziga xos tarzda bayon qilinadi. Birgina shariat amallarini bajarish bilan cheklanib qolmay, ruhni poklash, o'zni tanish orqali yaratuvchini bilish, haq dargohiga maqbul va loyiq tarzda yashash Qur'onda olg'a surilgan asosiy g'oya hisoblanadi.

Tasavvuf ta'limotining islomiy manbalaridan yana biri hadislardir³³. Payg'ambarimiz Muhammad alayhisssalomning hayoti, yashash tarzi, oila va jamiyatda tutgan o'zni, aytgan so'zlari, davlat va jamiyat boshqaruvidagi roli, pandu-nasihatlari, fikr-mulohazalari tasavvufda Qur'ondan keyingi asosiy manba hisoblanadi.

Tasavvuf manbalarining asosida tavhidiy e'tiqod, solih kishining ezgu amallari, ummat yagonaligi, o'zaro birodarlik, inson va koinot, inson va Olloh orasidagi munosabatlar, diniy bag'rikenglik, boshqa mazhab va e'tiqoddagi aholi bilan bahamjihat yashash kabi g'oyalar yotadi. Tasavvufiy manbalar shuning uchun ham ulkan ma'naviy merosimiz hisoblanadi.

Tasavvufiy hayotni tanlagan so'fiylar bir necha qoidalarga amal qilganlar. Jumladan, mehnat evaziga yashash, halol luqma eyish, ota-onani rozi qilish, o'zidan bironing manfaatini ustun qo'yish (javonmardlik), oila qurish, farzand va muridlarni oqil qilib tarbiyalash shartlari bu qoidalarining negizi bo'lgan. Shuningdek, so'fiy odam shirin so'zlikda, ezgu axloqda va ezgu amalda o'zgalarga ibrat bo'lishi shart bo'lgan. Bu qoidalarga amal qilmaganlar tasavvufiy hayotning ma'nosini tushuna olmaganlar. Boshqa ilmlarga nisbatan tasavvufni o'rganishda shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqatga aql va naql asosida qalban yondashish talab qilingan.

³³ Абу Абдуллох Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Саҳиҳи Бухорий: ал-Жомий ас-саҳиҳ (Ишонарли тўплам). Шайх Абдулазиз Мансур таҳририда. 1-китоб. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.- 712 б.; 2-китоб. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.- 624 б.

Tasavvuf manbalari so'fiyning ma'naviy kamoloti mezoni, uning tafakkur doirasi, dunyoqarashining kengligi, ilmiy bilimlarni qay darajada egallagani, o'zi bilimi bilan atrofdagilarga, jamiyatga foyda keltiruvchi shaxs bo'lib etishishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tasavvuf ta'limotining mohiyatini tushunib etmoq uchun eng avvalo uning nazariyasini amaliyotidan farq qilish zarur. Mazkur ta'limot qalbiga chuqur joylashgan Zahriddin Muhammad Boburning so'fiyni mutasavvufdan ajratgani tasodifiy emas. Tadqiqotimizdan ma'lum bo'lishicha, o'zlarini tasavvuf ahliga mansub deb biladigan tariqatning muxlisi bo'lgan va, eng muhimi, uning amaliyotini o'tagan kishilarni so'fiylar deb ataganlar. Tasavvufning g'oyaviy-nazariy jihatlarini o'ziga qabul qilib olgan, lekin tariqat amaliyotini o'tamagan odamlarni mutasavvif deb hisoblaganlar. Ana shu ma'noda Alisher Navoiy va o'rta asrlar musulmon dunyosining aksar shoirlari mutasavvuf edilar. Chunki ular sufiy-amaliyotchi bo'lmaganlar, lekin g'oyalar va qarashlarning ma'lum nazariy tizimi sifatida tasavvufning falsafasi va axloqiy tamoyillarini o'zlariga qabul qilganlar³⁴.

Olimlar tasavvuf tarixini dastlab ikki davrga ajratadilar: birinchisi – zohidlik davri, ikkinchisi – oriflik va oshiqlik davri. Birinchi davrni tasavvufning ibtidoiy davri (“avvalgi davr”) sifatida tilga oladilar. Oriflik davri deb atalgan ikkinchi davr IX asr o'rtalaridan boshlanib, bir necha bosqichlarga ega. Chunonchi, IX-X asrlar – xonaqohlarning paydo bo'lishi, tariqat rusumlarining shakllanishi davri. XI-XII asrlar – tasavvuf maktablari, silsilalarning tarkib topishi davri. Bunda Misr, Bag'dod, Basra, Buxoro, Nishopur, Termiz, Balx shaharlari tasavvuf va tariqat markazlari sifatida muhim rol o'ynagan. Natijada Misr, Xuroson, Movarounnahr, Iroq va Turkiston maktablari shuhrat topgan.

Tasavvufning ilk davrida maqomot va tariqat asoslarini ishlab chiqish, so'fiylik yo'riqlarini, vazifalarini belgilash va ilohiy haqiqatlarni el orasiga yoyishda Zunnun Misriy (796-861), Boyazid Bistomiy (vaf. 875), Junayd Bag'dodiy (vaf. 910), Hakim Termiziy (vaf. IX asr oxiri) va Mansur Xalloy (858-922)larning xizmati katta bo'lgan. Keyinchalik Abu Said Abul Xayr (967-1049),

³⁴ Бўронов Б. Тасаввув фалсафаси хусусида. – Т.: Ёзувчи, 2000. - б. 12

Abdulloh Ansoriy (1006-1089), Yahyo Suhravardiy (1155-1191), Ibn al-Arabiy (1165-1250), Najmiddin Kubro (1145-1221) kabi Shayxu-l-mashoyixlar tasavvuf ilmini yangi fikrlar, qarashlar bilan boyitdilar, yangi oqim, sislsilalarni vujudga keltirdilar.

Bu o'rinda shuni ko'rsatib o'tish kerakki, so'fiylik xususida gap borganda islom tarixidan unchalik voqif bo'lmagan ayrim tadqiqotchilar mistik-asketik, intellektual jihatidan o'z qobig'iga o'ralib qolgan ta'limotni tushunadilar. Biroq so'fiylikning vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi xuddi uning so'fiylik tariqatlari (suluklarning) faoliyatlari kabi odamning ruhiy jihatidan to'g'ridan-to'g'ri xudo bilan aloqada bo'lishi asosiy g'oyasini saqlagani holda turli davrlarda ularning ahamiyati va ijtimoiy maqomini o'zgartirib turgan. Shuning uchun ham ayrim suluklar, I.P. Petrushevskiy ta'kidlaganidek "jamiyatda foydali xizmat ko'rsatishdan voz kechib, zohidona xayolotga cho'mgan holda passiv hayot kechirishni" targ'ib qilsa, boshqa bir tariqat namoyandalari u yoki bu darajada hayotda harakatchanlikka chaqirishgan va faqat foydali mehnat qilishni shior qilib chiqishgan³⁵. Hatto ba'zan jamiyatni ijtimoiy jihatdan o'zgartirish masalasini o'rta tashlashgan. XIV asr 30-80- yillaridagi sarbadorlarning ommaviy tus olgan harakatlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Chunki bu harakatda hasaniya suluki izdoshlari ulkan rol o'ynagan³⁶.

Tasavvuf ta'limotining ijtimoiy mohiyati va g'oyaviy manbalari bo'yicha quyidagicha xulosalarga kelish mumkin: Tasavvuf tushunchasiga manbalarda turlicha ta'rif berilgan bo'lsa-da, ular mazmun jihatidan umumiy bir yaxlitlik hosil qiladi.

Tasavvuf ta'limotining paydo bo'lishi bevosita islom dini bilan bog'liqdir. Uning kelib chiqishini g'arb mistisizmi bilan bog'lash yoki boshqa dinlardan islom diniga o'tgan degan qarashlar bir yoqlama bo'lib, ular ilmiy asosga ega emas.

Musulmonlarning muqaddas kitobi – Qur'oni karim va undagi insonni ma'naviy poklikka undovchi fikrlar tasavvuf ta'limotining asosini tashkil qiladi.

³⁵ Петрушевский И.П. Ислам в Иране в VII-XV веках. – М.-Л.: ЛГУ, 1966.- с. 347

³⁶ Каримов Э.Э. Темур ва Темурийлар даврида диний-мафкуравий вазият. – Темур ва Улугбек даври тарихи. – Т.: Қомуслар бош тах., 1996.- б. 107

Undagi ilohiy ilm, zikr, olam, tavba, zuhd, riyozat kabi masalalar tasavvufning asosiy mavzulari, tamoyillari hisoblanadi. Tasavvufdagi maqomlarning belgilanishida ham shu masalalar, shuningdek, Payg'ambar (s.a.v.) bilan bog'liq holatlar e'tiborga olingan.

Tasavvuf tafsir, hadis, kalom, aqoid va fiqh ilmlari kabi shar'iy bir ilmdir. Qur'on va hadisdan olingan zohiriy fiqhga muqobil botiniy fiqh ilmi, qalb ahvoli ilmi, nafsni poklash ilmidir.

Tasavvuf bag'rida bir qancha tariqatlar shakllangan va rivojlangan. Tariqatlarning ko'pligi ham e'tirozlarga sabab bo'lmaydi. Har bir tariqat sohibining zikr va odob darslari boshqa-boshqa bo'lsa-da, maqsadi bitta.

Kashfu karomat ko'rsatish, xoriqulodda xislatlar namoyon etish tasavvuf Shayxlarining muhim jihati hisoblanadi. Tasavvufning sirliligi, g'ayb olami bilan aloqadorligi ham shundadir. Evropa olimlari tasavvufni "mistika" deganlarida shuni nazarda tutadilar.

Tasavvuf Shayxlari atrofdagilar ongi va shuuriga qattiq ta'sir o'tkazganlar va ma'naviyat sultonlari bo'lib maydonga chiqqanlar. Ularning so'zi va harakati, xislati va axloqi hammaga ibrat qilib ko'rsatilgan.

O'rta asrlar odamining buyuk shaxslarga hurmati, ixlosi va ishonchi biz tasavvur etganimizdan ko'ra ko'p hissa kuchli bo'lganki, mashoyix va avliyoning o'tmishda jamiyat hayotida tutgan o'rnini baholaganda bu jihatni sira ko'zdan qochirib bo'lmaydi.

So'fiylar hayotidagi "holatlar", "ilhomlanish lahzalari", "karomatlar ko'rsatish" tasvirlarini ular yashagan davr muhiti bilan bog'lab o'rganilmasa, biz oqilona mulohaza yuritishdan mahrum bo'lgan hisoblanamiz.

Tasavvufning eng buyuk xususiyatlaridan biri, faqat nazariy jihat bilan cheklanib qolmay, tasavvuf tamoyillarini tariqatlar yo'li orqali amaliy hayotda tadbiq etish hamdir. Nazariyotda "tasavvuf" deb atalgan bu oqimga amaliy hayotda "tariqat" deyiladi. Shuningdek, tasavvufning ko'pgina masalalarini etarlicha anglay olmoq uchun faqatgina nazariy bilim etmaydi: ibodat, zikr, mujohada va riyozat orqali qalb ushbu masalalarni idrok etadigan soflikka erishadi. Tasavvuf amaliy

turmush tarziga asoslangani uchun, bir tomondan uning nazariyasi ishlab chiqilar ekan, ikkinchi tomondan tariqatlar paydo bo'lib, tasavvufiy turmush tarzining qoidalari belgilangan. Dastlab, shaxsiy ma'naviy hayot tarzi bo'lib ko'ringan tasavvufiy turmush tarzi asta-sekin ijtimoiy-jamoat holiga aylangan.

Tasavvuf bag'rida qodiriya, yassaviya, kubraviya, chishtiya, suhravardiya, naqshbandiya, shozaliya, xilvatiya, mavlaviya, badaviya, dasuqiya va boshqa bir qancha tariqatlar shakllangan va rivojlangan. Olimlarning aniqlashicha, tasavvufda 160 dan ziyod tariqat tarmoqlari bo'lgan. Tariqatlarning ko'pligi ham e'tirozlarga sabab bo'lmaydi. Har bir tariqat sohibining zikr va odob darslari boshqa-boshqa bo'lsa-da, maqsadi bitta: Alloh roziligini topish, Allohning sevgan va rozi bo'lgan bandasi sifatida uning jannati va jamoliga musharraf bo'lish. Yo'l tanlashdagi usul farqi asosiy g'oyaga taalluqli emas. Shu bilan birga tariqatlarni turlicha tasniflashgan. "Bu tasniflarning ko'pligi, ularning asosidagi o'lchovlarning xilma-xilligiga borib taqaladi" deydi U.Turar va tariqatlarning asosiy tasniflari, unsurlari, yirik maktablari va ularning asoschilariga batafsil to'xtalib o'tadi³⁷.

Xulosa qilib aytganda, tasavvuf islom dinining o'zagi bo'lib, uning mohiyatini o'zlikni anglash orqali Haqni tanish, nafsni jilovlash, Payg'ambar (s.a.v.) xulqi bilan axloqlanish va shu orqali Alloh roziligiga erishish, loyiq va maqbul bo'lishdan iborat. Tasavvufning asosini esa Qur'oni karim va hadislar, Rasululloh (s.a.v.) va sahobalar hayot tarzi tashkil etadi.

Temuriylar davlatida XV asrning birinchi yarmida faoliyat ko'rsatgan tasavvuf tariqatlariga kubraviya, yassaviya, naqshbandiya, ishqiya va boshqa yo'nalishlarni kiritish mumkin. Ularning eng faollari kubraviya va naqshbandiya bo'lgani uchun keyingi bobda shu ikki tariqat vakillarining faoliyatiga to'xtalib o'tamiz.

³⁷ Турар Усмон. Тасаввуф тарихи. – Т.: Истиқлол, 1999.- б. 62

II Bob. Temuriylar davlatida tasavvuf vakillarining faoliyati

2.1. Kubraviya tariqati vakili Husayn Xorazmiy hayoti va faoliyati

Najmiddin Kubroning “Al-usul al-ashara”, “Risola at-turuq”, “Fi odob us-solikin”, “Favoyihul jamol” nomli asarlarida va u haqda yozilgan asarlarda Kubraviya tariqatining birmuncha jihatlari, talab va qoidalari bayon etilgan. Najmiddin Kubro tasavvuf tarixida, ta’bir joiz bo’lsa keng fellik yo’lini tutgan Shayxlardandir. Chunki u zotning xonaqosida sunniy mazhabli shogirdlar bilan birga shif mazhabli muridlar ham ta’lim olavergan. Shayxning o’zi sunniylikka e’tiqod qilgan bo’lsada shialikka ham hurmat bilan qaragan va shia ahli ilan sunniylar orasida xusumat va janjal kelib chiqishiga yo’l qo’ymagan. Aslini olganda tasavvuf mazhablar ayirmachiligidan ustun turadi. Tasavvuf ahli uchun Parvardigorning ishq, diydori hamma narsadan ustun. So’fiy ilohiyot olamiga ruhan qo’shilish uchun yashaydi va o’zligini barbod berib yor vasliga erishadi. Bundaf odamlar faqat Haqning haqiqatini, tavhid mohiyatini idrok etishni, ruhoniylar soflik olamida sayr qilishni muhim deb bilgan. Ammo shunga qaramay, islomdagi ikki mazhab, ya’ni sunniylik va shialik tasavvufga zimdan ta’sir etib turgan. Chunki har qanday diniy mazhab singari islomiy mazhablar ham odamlarning urf-odati, dunyoqarashi, tasavvur va tushunchalarini qamrab oladi. Bu esa o’z navbatida, ilohiy haqiqatlarni tushuntirish, odam va olam tuzilishini, xilqatini bilishda farqli jihatlarni yuzaga keltiradi.

Najmiddin Kubro tabiatida donishmandlik mantiq va majzublik birlashib ketganidan, so’fiyona amallari va qarashlarida ham xilma-xil tomonlar ko’zga tashlanadi. Xonaqosida xilvatnashlik va chilla o’tirish ham, botiniy-xafiy zikr ham, qizg’in bahs-munozara ham, samo majlislari ham bo’lib turgan.

Najmiddin Kubro tasavvufda Junayd Bag’dodiyning “sahv” (hushyorlik) yo’lini tutgan. Bu ham xorazmlik ulug’ Shayxning tafakkuriy-aqliy bilimga e’tibori borligining nishonasidir. Chunki Junaydning bu rukni Boyazid Bistomiyni “sukra” (behudlik, mastlik) rukniga qarama-qarshi usul sifatida ishlab chiqilgan edi. Boyazid bo’yicha, ilohiy ma’rifatni so’fiy faqat foniylar holatida, ya’ni butkul o’zligini yo’qotib, idrok eta oladi. Boyazid ilohni anglash va

tanish aql bilan, hushyorlik bilan bo'lmaydi deb uqtiradi. Junayd Bag'dodiy esa, bunga e'tiroz bildirib, so'fiy faqat behud devona bo'lsa, uning ma'rifati o'zigagina tatiydi, o'zgalarni tarbiyalay olmaydi va baqoga eta olmay, yarim yo'lda qoladi, deb aytadi. Junaydning nazariyasi islom uchun ham muvofiq edi va so'fiylarning dunyo, din va shariat bilan bog'lanishlariga imkon beradi. Shu bois Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy va Bahouddin Naqshband kabi Movarounnahr Shayxlari Junayd Bag'dodiyning yo'lini ma'qullaganlar. Ammo ularning birortasi Boyazid Bistomiy yo'lga nafrat bildirgan emas³⁸.

Najmiddin Kubro tariqatining o'ziga xos jihatlari uning dunyoqarashida ham, amaliy ishlarida ham ko'zga tashlanadi. U orif inson sifatida kishilarning ruhiyati, ruh hislatlarini chuqur o'rgangan. Ruhshunos Najmiddin fikriga ko'ra, inson "olami sug'ro", ya'ni kichik olam bo'lib, unda "olami kubro"ning, ya'ni katta olamning barcha xususiyatlari mujassamdir. Shayx Najmidin Kubro deydikim, inson taraqqiy etib borsa u Allohning "Rahim" va "Rahmon" sifatlaridan boshqa barcha sifatlarini egallay oladi. Ilohiy sifatlar pog'onama-pog'ona osmoniy-kayhoniy olamlarda joylashgan ekan, inson ham kamolot zinalaridan ko'tarilib, shu darajalarni egallay oladi. Biroq bu yo'lda unga piri komil rahnamolik qilishi kerak. Pir qattiq va qat'iy nizomlar bilan solik, ya'ni muridni o'z irodasiga itoat ettirib, belgilangan yo'ldan olib boradi. Solik zikru xilvat, muroqaba va mushohada chog'ida har xil holatlarni boshidan o'tkazadi, ko'nglida turli fikrlar, tuyg'ular paydo bo'ladi. Shuning uchun agar pir unga rahbarlik qilmasa, murid noto'g'ri, shaytoniy yo'lga kirishi hech gap emas. Zero, ilhom Rahmondan ham, shaytondan ham bo'lishi yoki jismdan, yohud ruhdan hosil bo'lishi mumkin ekan.

Najmiddin Kubro ruhoniy kechinmalar, nozik holatlarni puxta bilganidan, shunga muvofiq "latoif" nazariyasini ishlab chiqadi. Bu nazariyaga binoan, inson ruhi ko'zga ko'rinmas bir latif markazlardan iborat. Bu ong va tuyg'u, ruh va jism orasidagi bir narsa. U shunday nozikki, uni ilg'ab olish ham mushkul. Ammo inson hayotida bu "latif" markazlarning ahamiyati katta. So'fiy aynan shu markazlarni

³⁸ Ориф Усмон. Кубравия тариқати // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1995 й. 26 май

yallig'lantirib, o'tkirlashtirib borishi va ilg'ab olishi kerak. Ana shu "latoif" insonning ilohiy hislatidir. So'fiy riyozatlar, mashqlar davomida bu latoifni turli holatlarning o'zgarishi, ranglar va shakllarning almashinishi tarzida tasavvur qiladi. Najmiddin Kubro nazarida nuqta, dog' va doira murid ruhiy holatlarini o'zgarishida muhim xizmat qiladi³⁹.

Najmiddin Kubro ta'limotiga ko'ra inson bu makrokoinotning barcha xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan mikrokoinotdir. Shu tariqa inson o'zida "Alloh ar-Rahmon ar-Rahim" (Alloh rahimli va kechirimli) xususiyatidan boshqa barcha ilohiy xususiyatlarni birlashtirishi mumkin, deb hisoblagan. Najmiddin Kubro ta'limotida inson ruhi va ongining ko'zga ko'rinmas latif markazlari, ya'ni latoif nazariyasi alohida o'rin egallaydi. Bu nazariyaga ko'ra koinot ko'rinmas markazdan tashkil topgan bo'lib, u ong, tuyg'u, ruh va jism orasida joylashgan.

Ushbu xususiyatlar oliy osmon jismlarida muayyan izchillikda joylashgani tufayli so'fiy taraqqiyot va komillik yo'li orqali yurib, ularga etkanda ilohiy xususiyatlarga ega bo'lgan. Biroq, shunday komillikka etishish va haqiqatni bilish uchun tariqatning qonun-qoidalariga to'la rioya qilish va o'z irodasini pirlining irodasiga butunlay topshirib qo'yish lozim bo'lgan. Kubroning fikriga ko'ra faqat ustoz haqiqatni bilish yo'liga olib kirishi mumkin edi. Negaki, zikr vaqtida so'fiyning ongida yuzaga keladigan fikr va xavotirlar Alloh yoki shaytondan, yurak yoki tanadan, farishta yoki jinlardan kelib chiqishi mumkin edi⁴⁰.

So'fiy o'z mashqlari davomida kuzatadigan ranglar timsoliga ham Najmiddin Kubro ta'limotida alohida ahamiyat berilgan. So'fiyning ruhiy holati uchta narsadan o'tishi lozim edi: doira, dog' va nuqta. Doira – bu olam, dog' – olam tasavvuri, nuqta – olam markazi (vahdat)dir.

Shu tariqa inson ruhi ranglar bilan belgilanadigan turli hissiyotlardan o'tib borgan. So'ngi bosqich esa yashil yashil rang bilan belgilanib, ilohiy xususiyatlarning yaqinligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, Najmiddin Kubro ta'limotiga ko'ra murid ruhining ettita holati bilan ettita rang bog'langan.

³⁹ Комилов Н. Нажмиддин Кубро. – Т.: А.Қодирий ном. халқ мероси наш., 1995.- 6. 23

⁴⁰ Усмонов О. Шайх Нажмиддин Кубро ва Кубравия тариқати ҳақида // Шайх Нажмиддин Кубро. Масъул муҳаррир Э.Юсупов. – Т.: Ёзувчи, 1995.- 6. 28

Jumladan, oq rang – islom, sariq rang iymon bilan bog'liq bo'lgan. Zangori rang – ehson, yashil rang – itminan (ishonch), ko'k rang – iqon (to'la ishonch), qizil rang – irfon (bilim), qora rang – hayajon ramzi bo'lgan.

Murid komillikka erishish yo'li davomida murshidiga o'z ruhining shakli va ranglarining o'zgarib borishi haqida xabar berib turishi lozim edi. Bu ma'lumotlar orqali murshid shogirdi taraqqiyotining qaysi bosqichida ekanligini anglab olishi kerak edi. Ruhning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi (bir rangdan ikkinchi rangga) ruhning mukammallashish jarayonini aks ettirgan. Ruhning rangdan rangga ko'chishi rivojlanishdan nishonadir. Ushbu jarayon oxir-oqibatda rangsizlik holatiga, ya'ni tamkinga olib keladi. "Tamkin" holatiga kargan so'fiy "talavvun"dan, ya'ni rang-baranglikdan qutulib, Vahdat olamiga qo'shilgan bo'ladi. Chunonchi, zangori rang solikning tavba qilib, tariqatga qadam qo'yganida ko'rinadi, bu holatda u shariat doirasida bo'ladi, mantiqiy-daliliy bilishdan hali qutulmagan, hali ko'nglida dunyoviy havaslar mayli hukmronidir. Bundan keyin tariqat boshlanadi, solik qalbida muhabbat qo'zg'aladi, u Alloh yodi bilan yashaydi va bu sariq rangga to'g'ri keladi. Qizil rangda solikning ruhi vujudan ajrala boshlagani, ma'rifatga yaqinlashgani, ma'naviy mohiyatlar olamini anglagani ma'lum qilinadi. Ammo bu bosqich hali hirs qutqusidan xalos bo'lmagan bir holatdir. So'ngra oq rang ko'rinadiki, bu yurakning poklanishiga ishoradir va Haqiqatni anglash boshlanadi. Haqiqat olamidan xabardor bo'lib, tavid holatini boshdan kechiradi. Shundan keyin yashil rang keladi. Yashil rang valiylikdan nishona. U sirlarning siriga, g'aybga oshnolikni bildiradi va solikning asl mohiyatlarga etigayotganini ham anglatishi mumkin. Iazkur ranglar solikning Alloh tomon va Alloh bilan ruhiy safarlarini anglatgan bo'lsa, oltinchi rang – qora rang Allohdan xalq sari qayta safarini bildirib, kanzul asror – sirlar xazinasini egallashni va hayratga g'arq bo'lishni ifodalaydi. Hayratdagi ruh shariatning mag'zi, hikmatini boshqatdan idrok etib, qorong'i bir dog' rangiga o'raladi. Va, nihoyat, solik ruhi yana Alloh huzurida paydo bo'ladi. U qora rangdan qutulib, rangsizlik holatiga kiradi. Zoti kull darajasini egallagan solik yakranglik holatida maqsadiga erishadi.

Najmiddin Kubroning shakl va ranglarning olam hamda inson ruhi bilan bog'liq g'oya va nazariyasi nafaqat o'z shogirdlari, balki keyingi davrlarda ham boshqa so'fiylik ilmining namoyandalari tomonidan rivojlantirildi⁴¹.

Najmiddin Kubroning ta'kidlashicha, zikr paytida Allohning ismlariga uzluksiz ravishda diqqatning jamlanishi, ilohiy anglash va bilishga olib kelgan. Insonning ruhiy komillikka erishish jarayoni davomida pir o'z muridini o'nta bosqichdan iborat bo'lgan maxsus yo'l – tariqat zinapoyasidan etaklab borishi lozim edi. Bu o'nta bosqich aslida Najmiddin Kubro tomonidan ishlab chiqilgan Kubraviya tariqatining asosi va muridning axloqiy qonun-qoidalarini (sifat al-adab) anglatgan.

Najmiddin Kubro xonaqohda murid tarbiyalashning o'ziga xos usullarini ishlab chiqadi, o'nta talab asosida tariqat manzillarini bosib o'tish va poklanib, ma'rifatga erishish yo'llari borligini ko'rsatadi. “Risalat ut-turuq” (Tariqatlar risolasi) va “Al usul al-ashara” (O'nta usul) nomli kitoblari so'fiylar tarbiyasida quyidagi o'nta talabning muhimligi qayd etiladi: tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, o'zlat, zikr, tavajjuh, sabr, muroqaba, rizo.

Tavba – barcha amallarning boshi. O'z gunohlarini anglab, Alloh ta'olo oldida tavba qilgan va bundan keyingi hayotini faqat ilohiy ezgulik va xayrga bag'ishlashga ahd qilgan odamgini tariqatga kira oladi. Tavba qilgan odam bir hayot tarzini tark etib, ikkinchisiga o'tadi, xulqu xo'yini, axloqini o'zgartira boshlaydi, o'zini anglash sari safarga chiqadi.

Zuhd – taqvo, parhez demak. Zero, tavba qilgan kishi endi haromdan hazar qilib, halollikka yuz tutishi, Allohdan qo'rqib, u man etgan ishlarni qilmasligi lozim⁴².

Tavakkul – o'z amallari, fikri va ishlarida yolg'iz Allohga suyanish demak. Rizqni Alloh beradi, inson taqdirini Alloh belgilaydi va inson amallari ham Alloh irodasi doirasida bo'lishi kerak. Chunki yaxshilik va yomonlik, to'qlik va ochlik, boylik va kambag'allik ham Allohdandir. Alloh bizni toat ibodatga chorlaydi,

⁴¹ Ориф Усмон. Кубравия тариқати // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1995 й. 26 май

⁴² Каримов Э.Э. Кубравийский вақф XVII-XIX вв.: письменные источники по истории суфийского братства Кубравийа в Средней Азии. – Т.: Фан, 2008.- с. 19

insonligimizni eslatib turadi. Ammo inson buyuk zaruriyat ichradir. Uning faoliyati, ijodi va qudrati shu ilohiy zaruriyatdan tashqariga chiqib ketolmaydi. Inson buni anglamog'i lozim. Chunki inson barcha mavjudod kabi foniidir, u abadiy emas. Abadiy faqat Allohning o'zi, agar inson abadiyatni xoxlasa, Alloh sari intilsin, poklik olamiga qarab, kamol kasb etsin.

Qanoat – kamolotning eng maqbul yo'li hisoblanadi. Modomiki inson farishta bilan hayvon orasida turuvchi maxluq ekan, unda ruh va jism kurashi muqarrar bo'lib, kamolot ana shu jism talablarini eng borish va ruh talablarini ko'paytirish bilan qo'lga kiradi. Qanoat insonni inson qiladi, ma'naviyat bezagi bilan bezatadi.

O'zlat – tasavvuf ta'limotiga ko'ra insonning ruhi, agar u poklanishiga moyil bo'lsa, tabiiy ravishda yakkalanish va go'shanishin bo'lishni talab qiladi. Inson ruhi tajrid (ajralish) va tafrid (yolg'izlanish) bosqichlarini bosib o'tmasa, mutlaq poklanmaydi. O'zlat so'fiylarning chilla o'tirishlari, xilvatlari bilan amalga oshirilgan.

Tavajjuh – kurash, o'zi bilan o'zining kurashi. Solik hamma vaqt yaratganiga yuzlanib, undan madad so'rab, uning sari qalban intilmog'i darkor.

Sabr – solikning e'tiqodi, niyatini sinash. Haq yo'li og'ir va mushkul yo'l, uning azobu izzatiga chidagan kishilargina maqsadga erishadi. Tariqat yo'lovchisi sabr manzilidan o'tsa, ajib bir ruhiy dovondan o'tgan, yangi kuch-qudrat topgan bo'ladi⁴³.

Muroqaba – kuzatish, tafakkur-shuurga berilish demak. Tavba-tazarru qilib, zikru toat, sabru sadoqat bilan o'zining mahrifatini oshirib borgan solik, bora-bora osoyishta bir holga keladi, Alloh diydori yodida tafakkurga g'arq bo'ladi, olamlarni ruhan sayr qilib chiqadi, ko'z oldida Haq taolo jamoli va Payg'ambar siymosini keltira oladi. Ruhi to'lishib tasavvur va taxayyuli kengayadi, g'ayb asrori eshiklari eziga ochiladi.

⁴³ Усмонов О. Шайх Нажмиддин Кубро ва Кубравия тариқати ҳақида // Шайх Нажмиддин Кубро. Масъул муҳаррир Э.Юсупов. – Т.: Ёзувчи, 1995.- б. 29

Zikr – soʻfiy odam har erda, har doim Allohning ismlarini tilidan qoʻymasligi kerak, kalimalarni, duolarni muntazam takrorlab turishi bilan qalbga Alloh taʼolo sifatleri va zoti joylanadi. Alloh nuri porlay boshlaydi.

Rizo – solik Alloh qudratini, ilmini chuqur his qilgan holda, oʻzini butkul Uning irodasiga topshiradi va Alloh olami bilan huzurlana boshlaydi. Haq unga va u Haqqa yaqinlashadi.

Najmiddin Kubroning “Al-usul al-ashara” risolasi teran falsafiy asar boʻlib, XIII asr falsafiy yoʻnalishlariga kuchli taʼsir etgan, degan fikrlar bor. Umuman XIII asr tasavvufning falsaviylashuv davridir. Bir asrning oʻzida bir nechta buyuk faylasuf Shayxlar yetishib chiqib, ajoyib asarlar yozdilar va SHarq tafakkurini bir pogʻona yuqori koʻtardilar.

Najmidin Kubroning tasavvuf tarixidagi yana bir xizmati – javonmardlik gʻoyalarini tariqatga joriy etish boʻldi. Aslida bu ish ham ilgari boʻlgan. Chunonchi, Abusaid Abulxayr (XI) asr saxovat va mardlikni soʻfiyning sifatlaridan hisoblaydi. Biroq Najmiddin bu qarashni soʻfiylar hayotiga yana ham izchilroq singdirib yubordi. Natijada mardlik va poklik, qahramonlik va fidoiylilik, mahrifat va jismoniy-ruhiy qudrat birlashtirildi, inson kamolotida axloqiy yuksaklik, vatanparvarlik gʻoyalari qoʻshilib ifodalandi.

Keyinchalik, Najmiddin Kubro taʼlimotini targʻib qilish uning shogirdlari tomonidan davom ettirilgan. Shayxning oʻzi esa 1221 yili Gurganch shahrining Chingizxon askarlari tomonidan bosib olinishi davomida shahid ketgan. Ona Vatanini himoya qilish uchun Shayx va uning uch yuz oltmish shogirdi qoʻlida qurol bilan moʻgʻullarga qarshi chiqqan. Jang davomida Najmiddin Kubro moʻgʻul jangchisining qoʻli bilan oʻldirilgan. Uning qabri hozirgi Turkmaniston hududidagi Koʻhni Urganch xonaqohi yonida joylashgan⁴⁴.

Hozirgi kunda Koʻhna Urganch Ashxobodning shimoliy tarafidan 480 km. masofada joylashgan qoʻriqxonadir. Oʻtmishda esa u manbalarda miloddan avvalgi birinchi asrlardanoq tilga olingan Qadimgi Xorazm poytaxti boʻlgan. 995 yili Gurganch nomi berilib, Xorazm shohining qarorgohiga aylantirilgan va Oʻrta

⁴⁴ Каримов Э.Э. Кубравийский вакф XVII-XIX вв.: письменные источники по истории суфийского братства Кубравийа в Средней Азии. – Т.: Фан, 2008.- с. 20

Osiyodagi yirik shaharlardan biri Somoniylar davlatining poytaxti Buxoro shahridan keyingi o'rinda turgan. Najmiddin Kubro maqbarasi tarkibida xonaqoh va mozor bo'lib, u uchta gumbazli imorat shaklida qurilgan edi. Qabrtoshi gulli naqsh va xattotlik yozuvlari bilan qoplangan turli rangdagi plitkalar bilan bezatilgan edi. Afsonaga ko'ra, Najmiddin Kubro qabrtoshi u shahid ketgan joyda barpo etilgan. Hattoki, mo'g'ul jangchisi tomonidan chopilgan Kubroning boshi tushgan er ham alohida belgilab qo'yilgan edi.

Shuni ayti o'tish lozimki, Najmiddin Kubroning ma'naviy merosi va ta'limoti keng tarqalib, ko'plab so'fiylik tariqatlariga asos solinishiga olib keldi. Masalan, Hindistondagi Firdavsiya tariqati, Bog'doddagi Nuriya, Xurosondagi Rukniya, Igtishashiya, Zaxabiya, Nurbaxshiya, Kashmirdagi Hamadoniya-Aliya tariqatlari shular jumlasidandir. SHarqshunos tarixchi E.E. Karimov tadqiqotida Kubraviya tariqatining O'rta Osiyodagi so'ngi o'rta asrlarga mansub yana bir tarmog'i bo'lmish "Husayniya" haqida fikr yuritilib, bu boradagi mavjud qarashlar boyitilgan. Ushbu tariqatga oid tadqiqotga jalb qilingan hujjatlar uni O'rta Osiyoning ayrim hududlarida XX asrlarga qadar mavjud bo'lgan Kubraviylikning "Husayniya" tarmog'i, deb nomlashga imkoniyat beradi. Buni hozirgi tadqiqotlarda tilga olinayotgan XIX asrning birinchi yarmida yashagan Shayx Muhammad Husayn tomonidan asos solingan Naqshbandiya tariqatining so'ngi tarmog'laridan biri bo'lmish "Mujaddidiya Husayniya" bilan adashtirmaslik lozim.

O'rta Osiyoga islom dini kirib kelgan davrdan boshlab islomlashtirish jarayoni mazkur hudud tarixida muhim o'rin tutgan. Bu masala ko'chmanchi va o'troq aholining munosabatlari bilan bevosita bog'liq. Islom dini deyarli tez yoyilgan O'rta Osiyoning yirik shaharlari joylashgan markaziy hududlaridan farqli o'laroq chekka hududlarda bu jarayonning kechishi muammoli bo'lgan.

O'troq aholidan tashkil topgan vohalarni islomlashtirish yakunlangach, ko'chmanchilar orasida islom dinini targ'ib qilish diniy siyosatning asosiy vazifalaridan biri hisoblangan. Bu masalani so'fiylik ta'limoti va undan kelib chiqqan so'fiylik tariqatlari muvaffaqiyatli amalga oshirganlar. Bu tariqatlar mahalliy aholining an'ana va diniy qarashlarining ayrim jihatlarini qabul qilgan

holda noislomiy hududlardagi aholi orasida islom dinini singdirish yo'lidan bordilar va buning uddasidan chiqdilar. Ushbu jarayonda Kubraviya tariqati, jumladan O'rta Osiyoni bosib olgan mo'g'ullarni XIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab islom diniga kiritgan Najmiddin Kubroning ilk shogirdlari faoliyati muhim o'rin tutdi. Masalan, Oltin O'rdaning hukmdori Berkaxonni islom diniga aynan Sayfiddin Boxarziy kiritgan⁴⁵.

Keyinchalik Kubraviya tariqatining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot sohalaridagi tajribalari boshqa so'fiylik tariqatlari tomonidan qo'llanilgan. Shu tariqa Sayfiddin Boxarziy va izdoshlari tomonidan Kubraviya tariqatining bu sohadagi tajribalari XV asrlardagi Naqshbandiya tariqati faoliyatida davom ettirilgan. Misol tariqasida Sayfiddin Boxarziy vaqfida aks ettirilgan Kubraviya tariqatining siyosiy-iqtisodiy faoliyatini keltirish mumkin. Bu tajriba keyingi davrlarda ham keng qo'llanildi: hokimiyat tepasiga kelgan mo'g'ullar sulolasi vakili tomonidan Shayxning diniy-ma'naviy hayotidagi faoliyati tan olinib, unga qimmatbaho ehsonlar topshirilgan. Keyinchalik esa, bu mulklar Shayx qarindoshlari va yaqin izdoshlariga meros sifatida o'tgan. XV asrning ikkinchi yarmida bu tajriba Xo'ja Ahror tomonidan kengroq ko'lamda qo'llanilib, muhim iqtisodiy yutuqlarga olib keldi. Bu esa Naqshbandiya tariqatining siyosiy mavqeini ko'tarishga xizmat qilgan.

O'rta Osiyodagi Kubraviya tariqatining yana bir tarmog'i Xorazmda Najmiddin Kubroning shogirdi bo'lgan Bobo Kamol Jandiy (1263 y.v.e.) nomi bilan bog'liq. Bobo Kamol Jandiy mo'g'ullar bosqiniga qadar ustozini qoldirib, Sirdaryoning o'rta oqimlarida istiqomat qiluvchi turkiy qabilalar hududiga yo'l olgan edi. U ushbu hududlardagi turkiy qabilalar orasida islom dinini yoyish bo'yicha olib borgan faoliyati bilan mashhurdir. "Javohiru-l-asror" asarida Bobo Kamolning Sayfiddin Boxarziy bilan bo'lgan yozishmalari tilga olinadi.

Bobo Kamolning so'ngi diniy izdoshi Xorazmning mashhur shoiri Xo'ja Abulvafo Xorazmiyning shogirdi Husayn Xorazmiy bo'lgan. Husayn Xorazmiy o'limi bilan Bobo Kamol Jandiy tomonidan asos solingan Kubraviya tariqatining

⁴⁵ Каримов Э.Э. Кубравийский вакф XVII-XIX вв.: письменные источники по истории суфийского братства Кубравийа в Средней Азии. – Т.: Фан, 2008.- с. 22

yangi tarmog'i yakun topadi. Husayn Xorazmiy o'z silsilasini davom ettiradigan muridlarni qoldira olmagan bo'lsa kerak. Biroq Temuriylar orasida ham, ko'chmanchi aholi orasida ham Husayn Xorazmiy ega bo'lgan siyosiy ta'sirga keyinchalik Yassaviya va Naqshbandiya Shayxlari ham erishganlar. Shu tariqa Kubraviya tariqati o'z faoliyati bilan O'rta Osiyoning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotida Yassaviya va Naqshbandiya tariqatlaridan ustun turgan.

Kubraviya tariqatining qiziq jihatlaridan biri ushbu tariqat tarixida Husayn Xorazmiy nomi bilan XV, XVI va XVII asrlarda faoliyat olib borgan uchta tarixiy shaxsning mavjudligi hisoblanadi. Yuqorida tilga olingan shaxslarning kamida ikkitasi Kubraviya tariqatining ko'zga ko'ringan arboblardan biri bo'lganlar. K. Kattaevning yozishicha Kubraviya tariqatida "Xorazmiy" nisbasi bilan ikki mashhur piru murshid tarixiy manbalarda keltiriladi. Ularning nafaqat nisbalari, hatto ism va laqablari ham bir bo'lgan, ya'ni ikkalalari ham "Kamoliddin Husayn Xorazmiy" deb keltirilgan. Ammo, birlari taxminan XIV asrning ikkinchi yarmida tug'ilib XV asrning 20-yillarida (aniqrog'i, taxminan 1426 yilda) shahid etilgan bo'lsa, ikkinchilari XV asrning ikkinchi yarmida tug'ilib XVI asrning 50-yillarida (1551 yilda) vafot etgan. Ushbu ikki mashhur mashoyixning nomlari, yurtlari va tariqatlaridagi monandlik tufayli keyingi davr manbalarida ularning nomlari, nasablari, tug'ilgan va vafot etgan sanalari, umuman shaxsiyatlari borasida ba'zi tarixchi olimlar tomonidan bir muncha chalkashliklarga yo'l qo'yilgan⁴⁶.

Ushbu uchta shaxsning faoliyat olib borgan hududlari turlichadir. Ilk davrdagi Husayn temuriylar davrida Xuroson hududida, o'rta davrdagi Husayn Movarounnahr va Xorazm, so'ngi davrdagi Husayn esa, topilgan manbalarga ko'ra Xorazm hududida faoliyat olib borgan.

Birinchi davrdagi Husayn hayoti haqida, afsuski ma'lumotlar juda kam. O'zining "Qunuz al-haqoyiq" va "Yanbu al-asror fi nasaix al-abror" adabiy asarlaridan ma'lum bo'ladiki, u kamida ikki marta Dashti Qipchoqda istiqomat qilgan ko'chmanchilar bilan bu hududni aylanib chiqqan va Temuriylarning Xorazmdagi hukmdori Shoh Malik (v. 1426) huzurida maslahatchi bo'lib xizmat

⁴⁶ Каттаев К. Махдуми Хоразмий ва хонақоҳи тарихи. – С.: Зарафшон, 2003.- б. 7

qilgan. Husayn Xorazmiy taxminan 1430 yilda sodir bo'lgan dashtiqipchoqlik Abulxayrxon boshchiligidagi ko'chmanchi aholi vakillaridan Xorazmni himoya qilish jarayonida faol harakat olib borgan va bu faoliyat natijasida uning nomi tanilgan. Devin DeVisning ta'kidlashicha, o'sha davrdagi tazkira tuzuvchilari Abdurahmon Jomiyning "Nafahotu-l-uns" asarida bo'lganidek u haqda umuman ma'lumot bermaganlar, yoki juda kam xabar berganlar⁴⁷.

Birinchi davrdagi Husayn Xorazmiy haqidagi eng birlamchi va to'liqroq ma'lumot Alisher Navoiyning "Majolisu-n-nafois" asarida keltirilgan. Aynan Alisher Navoiy ma'lumotlari Husayn Xorazmiyning keyingi manbalarda keltirilgan ma'lumotlar uchun asos sifatida xizmat qilgan. biz ushbu ma'lumotni to'liq keltiramiz: "Mavlono Husayn Xorazmiy oliy bilimlarga oid ilmlar bo'yicha Xo'ja Abulvafo Xorazmiyning muridi va izdoshi bo'lgan. Mavlono o'z davrining mashhur kishilaridan biri bo'lgan. Uning qalamiga "Maqsad-i Aqso" asari mansub bo'lgan. U Mavlono Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy" va xorazmiy-turkiy tilda "Qasidai Burda" va boshqa asarlarga sharhlar yozgan. Biroq uning odat va qiziqishlari oliy bilimlardagi yutuqlari bilan mos kelmagan. Shohruh Mirzo davrida Mavlono bir she'ri deb, shirkda ayblangan va Xorazmdan Hirotga surgun qilingan. U dono va notiq bo'lganligi uchun unga ayb qo'yganlar uning xatosini isbotlab bera olishmadi va u o'z vataniga qaytib keldi". Bu ma'lumotlardan so'ng Alisher Navoiy Husayn Xorazmiyga ayb qo'yilgan she'rini keltiradi. Mavlono Xorazmdagi Tan So'fiy boshchiligidagi qo'zg'olon davomida qiynoqlar bilan o'ldiriladi. Uning qabri Xo'ja Abulvafo qabri yonida joylashgan⁴⁸.

Devin DeVisning ta'kidlashicha Husayn Xorazmiy haqidagi bu ilk manba uning vafoti haqida aniq ma'lumot bermaydi. Amerikalik tadqiqotchi ushbu savolga javobni Husayn hayotiga oid yana boshqa manba hisoblanmish "Majolisu-l-ushshoq" asaridan topishga muvaffiq bo'lgan. Unda ta'kidlanishicha, uning vafoti 1435-1436 yilga to'g'ri keladi. Lekin, shunga qaramay Husayn Xorazmda SHoh Malik (1426 y.v.e.) davrida yashab, ushbu hukmdorning homiyligidan

⁴⁷ ДеВис, Девин. Хусейн Хорезми: Среднеазиатский суфий начала XV века // Из истории суфизма: источники и социальная практика. – Т.: Наука, 1991.- с. 49

⁴⁸ Алишер Навоий. Мажолису-н-нафоис. Нашрга тайёрловчи С.Ғаниева. – Т.: Фан, 1961.- б. 9

foydalanganligi hamda u yozgan asarlari va o'z ustosi Shayx Abulvafo orqali Kubraviya tariqatiga mansub bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotlardan tashqari biz uning hayoti va faoliyati haqida deyarli hech qanday ma'lumotga ega emasmiz.

Xondamirning "Habib us-siyar" asarida u tariqat asoschisi Najmididdin Kubroning avlodlaridan ekanligi va 830/1426 yilda ko'chmanchi o'zbeklar tomonidan shahid etilishi keltirilganligi ham uning mashhur bo'lishining bir omilidir.

Boshqa bir manbada Husayn Xorazmiyni ko'chmanchi o'zbeklar davlatining asoschisi Abulxayrxon (1428-1568) o'zining ixlos qo'ygan murshidlaridan biri deb bilishi, Husayn Xorazmiyning tasavvuf borasida ham yurtining ko'zga ko'ringan shaxslaridan biri ekanligini anglatadi. Hofiz Tanish ibn Mir Muhammad Amin Buxoriyning "Abdullanoma" ("Sharafnomai shohiy") asarida u haqda shunday yozilgan: "Abulxayrxonning holini ixchamlab aytganda, u hali yigirma yoshga etmagan vaqtda davlat va hashamat quvvati bilan Xorazm viloyatini Shohruh mirzoning hukmronligidan qutqazdi va xonlik taxtiga o'ltirdi. U ilmu fatvo arboblari va taqvo egalariga kuchli e'tiqodi bo'lib, Xorazm viloyatiga tashrif buyurgan chog'larida goh-goh valiy mavlono Husayn Xorazmiyning ziyoratlariga borib, u kishining kimyo xosiyatli botinlaridan himmat yordami ko'rsatishni iltimos qilgan"⁴⁹.

Qiziq holat, barcha manbalar Husayn Xorazmiyni ko'chmanchi o'zbeklar qo'lida shahid bo'ldi desa, bu manbada esa ko'chmanchi o'zbeklar davlatining asoschisi Abulxayrxon uni o'ziga murshid hisoblamoqda. Tarixchi Xondamirning ma'lumotlariga qaraganda Husayn Xorazmiy ko'chmanchi o'zbeklar tomonidan 1426/27 yilda o'ldirilgan. Ayrim manbalarda uni 1435/36 yillarda vafot etganligi aytiladi. Uning kufrga yo'yilgan she'riyati din arboblari yoqmagan yoki hokimiyat arboblari g'ashini keltirgan va shuning uchun shahid etilgan bo'lishi mumkin. O'z vaqtida bu ish ham aniqlanib qolar. Ul zotning murshidi Xo'ja Abulvafo Xorazmiyning ham, agarchi Kubraviya tariqatiga doxilligi bo'lsada,

⁴⁹ Хофиз Таниш Бухорий. Абдулланом. – Т.: Фан, 1966.- б. 97

maqomoti va silsilasining qaysi sulukka aloqasi borligining qayd etilganligini topa olmadik⁵⁰.

Ikkinchi Husayn Xorazmiy haqida esa biz ko'proq ma'lumotga ega egamiz. Bu shaxs faoliyati Kubraviya tariqatining so'ngi o'rta asrlardagi O'rta Osiyo tarmog'ining eng cho'qqiga chiqqan davri bilan bog'lanadi. Bunday xulosaga ushbu mavzuga oid bo'lgan manbalarda keltirilgan ma'lumotlar asosida kelish mumkin.

XVI asrda yashagan Kamoliddin Husayn Xorazmiy nomi bilan mashhur bo'lgan Kubraviya Shayxi Husayn Xorazmiy hijriy 870 (melodiy 1565/66) yilda Xorazmda tavallud topgan va 1551 yilda vafot etgan. Uning ajdodlari esa asli andijonlik bo'lib, zamona taqozosi bilan Xorazmga kelib, turg'un bo'lib qolganlar⁵¹.

1517 yilning oxirida Samarqand shahriga ko'chib keladi va keyingi o'ttiz yil davomida aynan shu shaharda o'z faoliyatini olib boradi. Tarjimai holining asosiy manbasi sifatida shogirdi Joni Mahmud ibn Shayx Ali ibn Imodiddin G'ijduvoniyning "Miftohu-t-tolibin" asarini keltirish mumkin. Ushbu asarning Husayn Xorazmiyga tegishli bo'lgan ma'lumotlarga oid qismlari V.V. Bartol'd tomonidan nashr qilingan⁵².

"Miftohu-t-tolibin" asari muallifi tomonidan keltirilgan Shayxning O'rta Osiyo bo'ylab qilgan sayohatlariga alohida to'xtalib o'tish lozim. U Husayn Xorazmiyni Buxoroda ko'rgan va Fathobodda bo'lgan sayohati davomida sherik bo'lgan. Shu bilan birga Shayx yana Xurosondan CHorjo'yga sayohat qilgan, qayiqda uni tantana bilan kutib olishgan joy Dargonnacha etib, u erdan Urganchga kelgan. Shayx yana Urganchning g'arbiy hududlaridagi Vazir shahri va Hakim Ota, Sayid Ota, Xubbi Xo'ja kabi Shayxlarning qabrlari joylashgan Urganchdan uch kunlik masofadagi Boqirg'on dashtini ham ziyorat qilgan. Devin DeVis mazkur davrda O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan yassaviya-kubraviya tariqatlari o'rtasidagi raqobatni alohida izohlaydi.

⁵⁰ Каттаев К. Махдуми Хоразмий ва хонакоҳи тарихи. – С.: Зарафшон, 2003.- б. 10

⁵¹ Валихўжаев Б. Хожа Аҳрор тарихи. – Т.: Ёзувчи, 1994.- б. 77

⁵² Бартольд В.В. Сочинения. В 9 томах. Т. VII. – М.: Наука, 1973.- с. 145-151

Shayx bir necha marta Xorazmdan yigirma kunlik masofada joylashgan Mang'ishloqqa ham sayohat qilgan. bu erda yashagan ichki solor qabilasining barcha erkak va ayollari Shayxning muridlari bo'lishgan. Shayx bu erni nafaqat Xorazmda yashagan davrida, balki Samarqandga ko'chib kelgach ham bir necha marotaba ziyorat qilgan. Aynan shu erda Shayxning Bobo Qo'ldosh laqabli iti bilan bog'liq voqea bo'lib o'tgan. Husayn Xorazmiyning iti Najmiddin Kubroning iti kabi mashhur bo'lgan. Mang'ishloqda yashovchi bir turkman uni bo'ri bilan adashtirib o'ldirib qo'yadi. Keyin qatil o'z ishidan pushaymon bo'lsa ham, baribir moxov dardiga duchor bo'lgan. Uning qabilasi esa butunlay qirilib ketgan. It ko'milgan joy maxsus belgi bilan ajratilib, mahalliy aholining muqaddas qadamjosiga aylangan.

Umuman, Husayn Xorazmiyning tarjimai holi avliyo hayotini eslatadi. Uzoq vaqt davomida manoqiblar tadqiqotchilarning bahs-munozaralariga sabab bo'lgan. Negaki, bu manbalarning mualliflari tarixiy voqealarni afsonalar bilan bog'lashgan. O'rta asr mualliflari o'sha davrdagi o'quvchiga ko'proq ta'sir qilish uchun haqiqat bilan uydirmanini ataylab bir-biriga bog'lab tashlashi ham mumkin edi. Balki, shuning uchun ham o'rta asrlarda SHarqda manoqiblar juda ham mashhur bo'lgan. Lekin, shunga qaramay, aynan manoqiblar O'rta Osiyo hududidagi islom tarixi bo'yicha muhim manba hisoblanadi. Mashhur naqshbandiya tariqatining vakili Xo'ja Ahror (1404-1490)ga bag'ishlangan manoqiblar kabi "Miftohu-t-tolibin" asarida Husayn Xorazmiyning hayotiga doir afsonaviy ma'lumotlar keltiriladi. Masalan, Shayxning duosi orqali Saraxs shahrining olinishi, bir badavlat kishining etti yil davomida kasal yotgan o'g'lini davolashi, Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan Shayxning hassasi oldida namoz o'qilganligi va hayotida hech qachon ko'rmagan, ammo o'zgalardan eshitgan ma'lumotlari asosida uni qattiq hurmat qilgan Boburning Shayxdan madad so'raganligi va, albatta, o'z tarafdorlariga Shayxning mo'jizaviy ta'siri haqidagi ma'lumotlar shular jumlasidandir. So'ngi holat tasdig'i uchun Shayxning Samarqanddagi hayotiga oid ma'lumotni misol tariqasida keltirish mumkin. 1532-33 yili shaharda og'ir ichak kasalligi tarqaladi. Shayx xonaqohidagi kishilar esa

butun epidemiya davomida bu dardga umuman duchor bo'lmaganlar. Juma kunlari ibodat uchun Shayx "Xonim" masjidiga ketayotganda butun yo'l davomida uning ikki tarafida cho'zilgan qo'lida suvli idish bilan odamlar qatorlashib, Shayx ularga qo'lini tegizib, fотиha o'qishini intizorlik bilan kutib turishardi. Kimki bu iltifotga erishsa, u bu kasallikdan forig' bo'lardi⁵³.

Shu kabi hikoyalar turli so'fiylik tariqatlarining namoyandalari o'z izdoshlariga chuqurroq ta'sir qilish hamda yangi tarafdorlarni jalb qilishda muhim o'rin tutgan. O'rta Osiyoning asosiy uchta – Naqshbandiya, Yassaviya va Kubraviya tariqatlarining tarafdorlari ushbu hikoyalar orqali bir-biridan yanada ajralib chiqmoqchi bo'lganlar. Bu narsa XVI asrga kelib SHayboniylar hukmronligi o'rnatilgach, hududdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning o'zgarishi bilan bog'liq sharoitda yanada ko'zga ko'rindi⁵⁴.

So'ngi davrlarda Kubraviya tariqati o'z mavqeini oshirish uchun olib borgan faol harakatlari to'g'risida biz nafaqat aniq, balki bu masalaga oid bo'lgan bilvosita ma'lumotlarni ham uchratishimiz mumkin. Masalan, Maxdumi A'zam shogirdi Mavlono Lutfulloh Chustiyga (1571 y.v.e.) bag'ishlangan "Maqomoti Mavlono Lutfulloh" asarini ko'rib chiqaylik. Mazkur asar 1875 yili Mavlono Mir Muhammad al-Muftiy at-Toshkandiy tomonidan yozilgan. Ushbu manbaga ko'ra Mavlono Lutfullohning butun faoliyati Husayn Xorazmiyning izdoshlari bilan bahs-munozara qilish bilan o'tgan.

Birinchi yirik to'qnashuv Ohangaronda bo'lib o'tgan. Bu to'qnashuvda Mavlono Lutfulloh Kubraviya tariqatining namoyandasi Xo'jayi Xo'rda (Soktaregi) muridlarini o'zining tarafiga o'tishga ko'ndirib oladi. Xo'jayi Xo'rda tarafdorlari Mavlono Lutfulloh haqida aybnoma tuzib, Baroqxon a'yonlariga ushbu aybnomani taqdim qilishadi. O'z o'rnida Mavlono Lutfulloh tarafdorlari Baroqxon huzuriga kelib, butun mojaroni o'z manfaatlari tomonidan talqin qiladilar. Natijada, Baroqxon a'yonlarining bir qismi Mavlono Lutfulloh, ikkinchi qismi esa Xo'jayi Xo'rdaning tarafini olishadi. Baroqxon ushbu muammo jiddiy tus

⁵³ Каримов Э.Э. Кубравийский вакф XVII-XIX вв.: письменные источники по истории суфийского братства Кубравийа в Средней Азии. – Т.: Фан, 2008.- с. 24

⁵⁴ Мукминова Р.Г. Борьба за Мавераннахр между Тимуридами и Шейбанидами. К истории образования узбекского государства Шейбанидов. Дис. канд. истор. наук. – Л., 1949.- с. 130

olayotganini ko'rib, ikkala tarafni majlisga chaqiradi va ulardan yarashib olishni talab qiladi.

Pirovardida, Mavlono Lutfulloh tarafdorlari Baroqxondan himoya yorlig'ini olishga muyassar bo'ladilar. Bu yorliqda quyidagilar bayon qilingan: “Bu to'hmatni yana kimdir qaytarsa, o'z boshini yo'qotishdan qo'rqsin. Va Mavlono xizmatida turgan kishilarning yo'lida turmasin. Va ayniqsa, Shayx Muhammad Husayn Kubraviy tarafdorlari tomonidan hech qanday yo'lto'sarlik bo'lmasligi kerak”.

Bu yorliq haqiqatdan ham Toshkent hukmdori tomonidan yozilganligi to'g'risida biror narsa deyish qiyin. Nima bo'lganda ham bu yorliq Mavlono Lutfullohning holatini mustahkamlab bera olmadi. Negaki, yuqorida tilga olingan voqeadan keyin u yana bir yil davomida Toshkentda ko'rinmay yurgan. Faqatgina Xo'jayi Xo'rda vafot etgach va uning tarafdorlari “o'z qilmishlaridan pushaymon” bo'lgach, Mavlono Lutfullohning mavqei yana Toshkentda o'rnatilgan.

Samarqandda ham Mavlono Lutfulloh Kubraviya tariqatining namoyandalari bilan yomon aloqada bo'lgan. “Maqomoti Mavlono Lutfulloh” nomli manbada keltirilishicha, Xo'jagiy, ya'ni Maxdumi A'zam vasiyatiga ko'ra Mavlono Samarqandda Naqshbandiya tariqatining ta'sirini tiklamoqchi bo'ladi. Husayn Xorazmiy tarafdorlari bilan bo'lgan muzokaralarda Mavlono Lutfulloh ularni rofiziylilikda (shialikda) ayblagan.

Shuni aytib o'tish kerakki, qo'lyozma manbalarda keltirilgan ma'lumotlarning tahlili Kubraviya tariqatining tarafdorlari tez-tez shialikda ayblanib kelinganligini ko'rsatadi. Bu hodisa, asosan, o'sha davrda Eron hududida shialik harakatining o'sishi bilan bog'liq. Shialikning etakchilari o'zlarini Kubraviya so'fiylik tariqatining izdoshlari, deb hisoblaganlar. J.S. Trimingemning ta'kidlashicha, “shialik so'fiylik niqobida Kubraviya, Xilvatiya, Bektoshiya va Bayramiya tariqatlari ichida yashirin oqimga aylandi”⁵⁵.

Shialikka ayblash O'rta Osiyo hududida Kubraviya tariqatining sunniylik oqimida ekanligini qayta qayta ta'kidlanishiga olib keldi. Bu ish 1726 yilda

⁵⁵ Тримингэи Дж.С. Суфийские ордены в исламе. – М.: Наука, 1989.- с. 88

tuzilgan “Ashjoru-l-xurd” asarida amalga oshirilgan. Ushbu asarda turli so’fiylik tariqatlariga mansub bo’lgan ettita Shayx shajarasi keltirilgan. Shular jumlasida, Kubraviya tariqatining Shayxlari – “silsilai sunniya kubraviya” ham bor. Va bu shajara Shayx Najmiddin Husayn bilan yakunlanadi. Biroq, bu harakatlarga qaramay, Kubraviya tariqatini shialikda ayblash tez-tez vujudga kelib turgan.

Yuqorida tilga olingan ayblovlarga javoban Kubraviya tariqatining tarafdorlari Samarqand taxtining vorisi Sulton Sayiddan madad olib, Mavlono Lutfullohni tutib olishadi va hammaning ko’z o’ngida uning soqolini qirishadi. Manbada keltirilishicha, bir necha kundan keyin Samarqand hukmdori Abdullatif Mavlono Lutfulloh huzuriga kelib, undan o’z jiyani Sulton Sayid qilgan ish uchun uzr so’raydi. Lekin, shunga qaramay, Mavlono Lutfulloh ichida gina saqlaydi. Va Abdullatif vafot qilgandan (1550) so’ng Baroqxonni Samarqandni bosib olishga ko’nlirmoqchi bo’ladi. Haqiqatdan ham, birozdan so’ng Baroqxon ikki marta harakat qilib, 1553 yilda Samarqandni bosib oladi.

Samarqand hukmdori Abdullatif ukasining qilmishlari uchun haqiqatdan ham Mavlono Lutfullohdan kechirim so’ragan bo’lishi mumkin. Negaki, Abdullatif Mavlono Lutfullohning Baroqxon bilan yaxshi munosabatda ekanligidan xabardor bo’lgan va Baroqxon yuqorida tilga olingan noxush voqeadan foydalanib, Samarqandni bosib olishga harakat qilishi mumkin edi.

Yuqorida tilga olingan ma’lumotlar XVI asrda Kubraviya tariqatining mavqei Movarounnahrning yirik shaharlarida yuqori darajaga ega bo’lganidan dalolat beradi. Turli tariqatlar, ta’limotlar va so’fiylik guruhlar o’rtasidagi raqobatga keladigan bo’lsak, bu holat yangi emas, balki odatiy bo’lgan. O’rta O’siyoda turli tariqatlarning raqobati ayniqsa XIV-XV asrlarda yaqqol ko’zga tashlanadi. Natijada biz bayon qilayotgan davrga kelib Naqshbandiya tvriqati, ayniqsa Xo’ja Ahror faoliyati tufayli yuqori mavqega erishadi va bunday holat XV asrda ham saqlanib turadi. Biroq, tadqiqotlar O’rta Osiyoda islom tarixi juda murakkab va serqirra bo’lganligini ko’rsatmoqda.

Devin DeVis XVI asrdagi Husayn Xorazmiyning faoliyatini O’rta Osiyodagi Kubraviya tariqatining qisqa muddat ichida bo’lsa ham eng kuchli va obro’li davri,

deb hisoblaydi. Shu bilan birga ushbu tariqat namoyandalari keyingi davrlarda ham ancha faol harakat olib borganlar. Buni tarixda Husayn ismi bilan ataluvchi va Xorazmdan kelib chiqqan uchinchi shaxsning mavjudligi ham isbotlaydi.

Uchinchi Husayn Xorazmiy bo'yicha tadqiqot olib borgan sharqshunos-tarixchi E.E. Karimovning ta'kidlashicha, bu shaxs haqida umuman tarixiy ma'lumotlarning mavjud emasligi va qo'lyozma manbalarda hech qanday ma'lumot keltirilmaganligi aniqlangan. Uchinchi Husayn Xorazmiy haqida ma'lumot kam uchrashi u faqatgina Xorazm hududida tanilgan bo'lishi mumkinligi bilan bog'liq bo'lsa kerak. Biroq, shunga qaramay, aniq shajaraning mavjudligi va vaqf xo'jaligining holati Kubraviya tariqatining so'ngi asrlardagi tarmog'ining ushbu namoyandasi ham taniqli shaxs bo'lganligidan dalolat beradi. Shu bilan bog'liq holda bir yozma yodgorlik haqida eslatib o'tmoqchi edik. Bu manba Husayn Bobo nomi bilan ma'lum bo'lgan shaxsga tegishli bo'lib, tarixda uchinchi Husayn Xorazmiy ismli kishi mavjud bo'lganligini isbotlaydi⁵⁶.

⁵⁶ Каримов Э.Э. Кубравийский вакф XVII-XIX вв.: письменные источники по истории суфийского братства Кубравийа в Средней Азии. – Т.: Фан, 2008.- с. 28

2.2. Naqshbandiya tariqati vakillari faoliyati

XI asrlardan boshlab Markaziy Osiyoda ham tasavvuf keng tarqala boshladi. Bunda mashhur Xoja Yusuf Hamadoniyning (1048-1140) xizmati alohida qayd qilinadi. “Yusuf Hamadoniylar Buxoroda Xoja Abdulloh Barqiy, Xoja Hasan Andoqiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Abdulxoliq G’ijduvoniylarga saboq bergan”. “Bu silsilaga daxldor shayxlar Xojalar yoki Xojagonlar deb ataladi. Xojagonlar tariqati shu so’zdan olingan”⁵⁷.

Xojagon tariqatida zikr va uning xillariga amal qilish nuqtai nazaridan ikki yo’nalish maydonga keladi – biri zikri a’loniya, ya’ni baland ovoz bilan zikr qilish yoki jahri sultoniya, ikkinchisi zikri xufiya, ya’ni ovoz chiqarmay dilda zikr qilish. Bu ikki zikrning mohiyati bir, ammo shakliy-ifodaviy farqda ba’zan mazmuniy o’ziga xosliklar ham ko’zga tashlanadi.

Zikri a’loniya yoki jahri sultoniya yo’nalishi Yusuf Hamadoniyning uchinchi xalifasi Xoja Ahmad Yassaviy(v. 1166) tomonidan takomillashtirilgan. Ahmad Yassaviy Turkistonda yashovchilarning turmush-tarzi, urf-odatlarini, e’tiqodiy an’analarini e’tiborga olib, zikri a’loniya yoki jahri sultoniyaning qo’llagan hamda Yassaviya nomini olgan bu yo’nalishni rivojlantirgan.

Zikri xufiya, ya’ni ovoz chiqarmay ko’ngilda zikr qilish yo’nalishi Yusuf Hamadoniyning to’rtinchi xalifasi Abdulxoliq G’ijduvoniylar sharofati bilan etakchi mavqega ko’tarildi. Hamadoniylar ta’limoti asosida vujudga kelgan Abdulxoliq G’ijduvoniyning “Xojagon” tariqati Bahouddin Naqshband davrida keng yoyilib, Naqshbandiya yo’nalishini tashkil etdi. Shuning uchun Xojagon-naqshbandiya tariqati deb ataladi va ul buyuk zot Xoja Abdulxoliq G’ijduvoniylar “Sarhalqai silsilai Naqshbandiya” deb ta’rif beradilar.

Yusuf Hamadoniyning tariqatlari – “zikri a’loniy”, oshkora zikr edi. Xoja Abdulxoliq ustozining ta’limotini har tomonlama boyitib, amaliyotga “zikri xufiya”ni olib kirdi. Va, xojagonlar tariqatining sakkiz rashha-qoidasini shakllantirib berdi. Bu haqda Ali Safiy shunday yozadi: “Xojagonlar tariqati binosining asosi hisoblangan quyidagi sakkiz so’z ham Xoja Abdulxoliqning aziz

⁵⁷ Хасаний М., Раззокова М. Хожагон тариқати ва Хожа Хасан Андокий. – Т.: Имом ал-Бухорий рес. илмий-маърифий мар. наш., 2003.- б. 8

so'zlaridan hisoblanadi: hush dar dam, nazar bar qadam, safar dar vatan, xilvat dar anjuman, yodkard, bozgasht, nigohdosht, yoddosht. Bulardan o'zga narsalarning barchasi pindosht, ya'ni manmanlik va g'urur hisoblanadi. Maxfiy qolmasinkim, boshqa uch kalima ham bo'lib, bular mazkur toifaning istilohlaridan hisoblanadi. Ular vuqufi adadiy, vuqufi zamoniy va vuqufi qalbiydir⁵⁸, demak bu kalimalarning hammasi o'n bittadir.

Hazrati Xoja Abdulxoliq Xojagonlar shajarasining sarhalqa (boshlovchi)si bo'lganlari uchun yuqoridagi kalimalarni bu erda tushuntirib ketish zarur, chunki bu azizlarning tariqati (yo'llari)ni bilish shu istilohlarni tushunishga bog'liqdir. Ular quyidagi rashhalarda qisqa yo to'liq holda o'z bayonini topadi⁵⁹.

Rashha 1. "Hush dar dam" deyishning ma'nosi shuki ichkaridan chiqayotgan har bir nafas ogohlik va huzur yuzasidan bo'lishi, g'aflat unga hech yo'l topmasligi kerak va u nafasni ogohlikka sarflash kerak. kimki nafasini asramasa, uni yo'qotdi deyilar, ya'ni bu yo'l va usulni yo'qotibdi deganidir.

Rashha 2. "Nazar bar qadam" degani shuki, nazari doim oyoq panjalarining ustida bo'lsin, toki uning nazari sochilmasin va keraksiz joyga tushmasin.

Rashha 3. "Safar dar vatan"ning ma'nosi shuki, solik (tariqat yo'lida yuruvchi) odamiylikning tabiatida safar qiladi, ya'ni odamiylik sifatidan farishta sifatiga o'tadi, yomonlik sifatidan yaxshilik sifati tomon ko'chadi.

Rashha 4. "Xilvat dar anjuman" haqida hazrati Xoja Bahouddindan so'radilar: "Sizning tariqat yo'lingizning asosi nima?" javob berdilar: "Xilvat dar anjuman, ya'ni tashqi tomondan xalq bilan, ichki tomondan Haq bilan bo'lish". Xoja Avliyoyi Kabir aytadilarki, zikr (Alloh so'zini takrorlash)da mashg'ullik shu darajaga etib boradiki, bozorga kirsayurakdagi zikr g'alabasidan hech qanday so'z va ovozni eshitmaydi.

Rashha 5. "Yodkard", bu zikri lisoniy (til zikri) yoki zikri qalbiy (dil zikri)dir. Mavlono Sa'diddin Qoshg'ariy aytadilarki, zikrning ta'lim berishning yo'li shuki, shayx avval dili bilan "Lo iloha illallohu Muhammadur rasululloh" deydi. Murid esa diqqatini jamlab, ko'nglini shayxning ko'ngli ro'parasida tutadi,

⁵⁸ Bularni Xoja Bahouddin Naqshband qo'shgan

⁵⁹ Rashhalar muallif tomonidan juda keng berilgan bo'lib, bu yerda qisqartirib berildi

ko'zini ochib, og'zini mahkam yumadi, nafas olmay, ehtirom va kuchli ichki quvvat bilan yuqoridagi zikrni aytishni boshlaydi. Bu zikrni tili bilan emas, balki ko'ngli bilan aytadi. Nafas olmaslikda chidasin va bir nafasda nafas olmasdan uch marta aytsin, toki zikr halovati ko'ngliga etsin.

Rashha 6. "Bozgasht" shundayki, zikr aytuvchi tili yoki dilida kalimayi toyyibani aytganda uning orqasidan "Xudovando, mening maqsudim sensan", so'zini aytadi. Bu bozgasht kalimasi yaxshi yoki yomon fikrlarni odamdan haydovchidir, u zikrni xolis qiladi, zikrni o'zga narsalardan ozod etadi.

Rashha 7. "Nigohdosht" – har xil fikrlardan xalos bo'lish, tashqi olamdan ajralish uchun intilish bo'lib, kalimayi toyyibani bir nafasda necha marta aytsa ham, shu davr ichida xayolni boshqa narsalarga yubormaslik kerak.

Rashha 8. "Yoddosht" shundayki, undan maqsad Haq subhonahu va taoloning doimo zavqu shavq bilan yodda tutib, ogoh bo'lishdir. Ba'zilar uni "g'oyib bo'lmaydigan huzur" degan ibora bilan ham aytadilar. Ba'zi haqiqat ahlining nazarida u shunday bir mushohadadurki, Haq subhonahu muhabbati ko'ngilni tamoman o'ziga qamrab oladi, bu esa yoddoshtning hosil bo'lishidan darakdir.

Rashha 9. "Vuqufi zamoniyy". Xoja Bahouddin buyurdilar: "Murid bosib o'tuvchi yo'l bo'lgan vuqufi zamoniyy (zamondan voqif bo'lish) shundayki, banda doimo o'z ahvolida voqif bo'lishi, har bir lahzada uning sifati va holi qanday, shukrga loyiqmi yoki uzrga loyiqmi, bundan ogoh bo'lishi lozim".

Rashha 10. "Vuqufi adadiy". Bu zikrda adad (sanoq)ga rioya qilishdan iboratdir. Xoja Bahouddin buyurgan edilar: "Qalb zikrida adadga rioya qilish parishon bo'lgan xayollarni quvib, diqqatni bir erga jamlashdir".

Rashha 11. "Vuqufi qalbiy". Bu ikki ma'noni o'z ichiga oladi. Biri shuki zikr aytuvchining dili Haq subhonahu va taolodan ogoh bo'lishi va hozir turishidan iboratdir, bu shu darajada bo'lishi kerakki, Haq subhonahudan o'zga hech narsa dilda bo'lmasligi kerak. Bunday ogohlikni shuhud, vusul, vujud va vuqufi qalbiy deyilar.

Ikkinchi ma'nosi shuki, zikr aytuvchi o'z dilidan voqif bo'lishi kerak, ya'ni zikr paytida majozan dil deb ataluvchi sanobar bargi shaklidagi bir parcha go'shtga butun diqqatini qaratishi lozim va bu parcha go'sht chap ko'krakda joylashgan bo'lib, uni zikr aytishga majbur va mashg'ul qilmoq kerak, uni zikr va fikrdan g'ofil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik zarur"⁶⁰.

Tariqatlar vujudga kelib, zohidlik va uzlatga chekinish rasm bo'lgandan boshlab, xilvat va anjuman yoxud xalq bilan va Haq bilan degan tushunchalar munozaraga sabab bo'lib kelgan. Bahouddin Naqshband ikki tomonni birlashtirib, ham xilvat sari ruhiy ehtiyojni qondirish va ham jamoat ichida yashab, elga foyda keltirish yo'lidan borgan. Buni "xilvat dar anjuman"da yaqqol ko'rishimiz mumkin. Tasavvufda bir-biriga zid deb kelingan tushunchalar o'zaro kelishtirilgan. "safar dar vatan" (vatan ichra safar), "hush dar dam" (nafasda hushyorlik), "nazar bar qadam" (nazarni qadamdan uzmaslik) kabi qoidalar "xilvat dar anjuman" qoidasini hayotga tadbiq etish usullari edi. "Yodkard" (yodlash), "bozgasht" (takrorlash, yangidan boshlash), "nigohdosht" (esda saqlash), "yoddosht" (eslab qolish) "zikri xafiy" deb nomlangan yashirin zikrga tegishlidir. Bahouddin Naqshband qo'shgan "vuqufi zamoniy" (muayyan muddatda to'xtab, o'zini-o'zi tekshirish), "vuqufi adadiy" (zikr hisobini aniqlash uchun to'xtash) va "vuqufi qalbiy" (qalb ahvolini bilish uchun to'xtash) tamoyillari ham yashirin zikrni mustahkamlash va kuzatib, natijasini bilish uchun joriy etilgan. Ammo naqshbandiya tariqatida surunkali zikr talab qilinmagan. Maqsad ko'p aytish emas, mohiyatga qarab ish tutish bo'lgan.

Muhammad Boboyi Samosiy (v. 1340) hazrat Bahouddinning dunyoga kelishini oldindan aytgan. Bahouddin tug'ilgandan so'ng ma'naviy farzandlikka qabul qilib, uning tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanishni shogirdi hazrat Mir Kulolga (v. 1370) topshiradi. Hazrat Mir Kulol bu vazifani to'liq ado qilgan. U "suvrat yuzidin" Bahouddin Naqshbandga tariqat ta'limini o'rgatgan. Ammo

⁶⁰ Фахруддин Али Сафий. Рашахоту айнил-хаёт (Обихаёт томчилари). Таржимон домла Худойберган ибн Муҳаммад (XIX аср). Нашрга тайёрловчилар М.Ҳасаний, Б.Умрзоқ. Масъул муҳаррир Б.Умрзоқ. – Т.: Абу Али Ибн Сино ном. тиббиёт наш., 2004.- б. 18-27

Bahouddin “haqiqat yuzasidan” uvaysiydir. Xoja Abdulxoliq G’ijduvoniyni ruhoniylaridan tarbiyat topgandir.

Vaholanki, Abdulxoliq G’ijduvoniyy vafotidan 139 yil o’tgandan keyin Bahouddin tug’ilgan. “Uvaysiy” so’zining mazmuni haqida Alisher Navoiy shunday yozadi: “...har kishiki, bu toifadin zohir yuzidin piri ma’lum bo’lmasa va mashoyixdin pirining ruhi oni tarbiyat qilgan bo’lsa, oni uvaysiy derlar”⁶¹. Demak, o’tmish ulug’laridan birining ruhi kimni tarbiyat qilsa, unday shaxs “uvaysiy” bo’ladi.

“Xoja Abdulxoliq G’ijduvoniyy ...xalqdan og’irlikni ko’tarmoq kerak va bu muyassar bo’lmasa, halol kasb bilan “dast ba kor, dil ba yor” degan so’zni xojagon tariqatida bajarish shartdir” deb xalq manfaatlari yo’lida chalishishga, uning hayot yukini o’z zimmasiga olishga chaqirgan. Agar odam bu ishga qodir bo’lmasa, o’z yukini xalq ustiga tashlamay, biror kasbni egallab, halol mehnat bilan kun ko’rishi kerak deb o’z ta’limotining mohiyatini ochib bergan, Allohga yaqinlashishning, Alloh ko’rsatmalari bilan yashashning yangi, insonparvar yo’lini tavsiya etgan edi.

Bahouddin Naqshband G’ijduvoniyy yo’lini davom ettirib, uni yuksak bosqichga ko’tardi. Abdulxoliq G’ijduvoniyy “dast ba koru, dil ba yor” deb, bunyodkorlikka va imonga da’vat etgan bo’lsa Bahouddin Naqshband “dil ba yoru, dast ba kor” deb, imonga va bunyodkorlikka chorlaydi. Bir imon, bir tilak, bir intilishni mujassamlashtirgan va bir mafkurani ifoda etgan bu ikki muqaddas kalima o’z yurti va xalqining, shaxsan o’zining baxtini izlagan har bir insonning qalbida abadiy joy olishi kerak. zero, naqshbandiya tariqati – qalbi Alloh nuri bilan yoritilgan va qo’llari bunyodkorlik bilan band insonlar mafkurasidir. Shu mafkurani mujassamlashtirgan Bahouddin Naqshband ta’limoti yangi jamiyatimizning axloqida uning ajralmas bir qismi bo’lib qoladi⁶². Uning “Dil ba yoru, dast ba kor” aqidasi bugun yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “jamiyatning ma’naviy hayoti bilan diniy munosabatlarni uyg’unlashtirishda ...dasturulamal qilib” olinadigan hikmatdir. Demak, tasavvuf falsafasi bugungi qarashlarimiz uchun ham, kelgusi avlodlarimiz uchun ham dunyoqarashni, tarbiyani belgilovchi

⁶¹ Алишер Навоий. Насойим ул-мухаббат. МАТ. 20 томлик, 17-том. – Т.: Фан, 2001.- б. 24

⁶² Иззат Султон. Баҳоуддин Нақшбанд абадияти. – Т.: Фан, 1994.- б. 86-87

omillardan biri bo'lib qoladi⁶³. Chunki Bahouddin Naqshband ta'limotining ahamiyati faqat uning tarixdagi o'rni bilan cheklanib qolmaydi. Bu ta'limot bugun uchun, hozirgi kishilar ma'naviy kamoloti uchun ham katta ahamiyatga ega. Amerikalik olim Dj.S. Trimingem yozganidek, tasavvuf, shu jumladan naqshbandiya falsafasi "bundan keyin insoniyatning ma'naviy barkamolligi uchun muhim hayotiy ta'limot bo'lib qolaveradi".

Manbalarda yozilishicha Xojagon tariqatida Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy zamonidan to Amir Kulol zamonigacha zikri xufiyani zikri a'loniya bilan birga amalga oshirganlar va ularning silsilasini "a'loniyaxon" deganlar... Amir Kulol umrining oxirida barcha ashoblarini Bahouddin Naqshbandga ergashishini buyurganlarida ular "Hazrati Bahouddin zikri a'loniyada sizga bay'at qilmadiku" deb savol qiladilar. Amir Kulol "ularga o'tgan hamma amallar hikmati ilohiydandir va o'rtada uning ixtiyori yo'qdir", deydi.

Bahouddin Naqshband o'z tariqatlari mohiyatini tushuntirib deganlar: "bizning tariqatimiz urvoi vusqodir (mustahkam tutqichlar), ya'ni hazrati Rasul sallollohu alayhi vasallamga muto'ibat bo'lish va sahobai kirom merosiga ergashishdir". Yana qo'shib qo'yganlar "har kim bizning tariqatdan yuz o'girsar, diniga xatar bor"⁶⁴.

Alouddin Attorning aytishicha hazrati Bahouddinning yoqimli yo'llari shariatni mahkam tutish va sunnatga amal qilish bo'lgani uchun, ko'pincha ularning suhbatlari ulamolar bilan edi. Hazrati Eshon davrida Buxoroning peshqadam ulamolari mavlono Hisomuddin Xoja Yusuf Asiliy va mavlono Hamididdin Shoshiy edilar. Ular Hazrati Xoja bilan ko'p hamsuhbat bo'lardilar. Hazrati Xojamiz "biz ulamolardan boshqoq teruvchilarmiz, demak biz isbot qilamiz. Bizning tariqamiz sunnatga amal qilishdir, payg'ambar (s.a.v.)ning sunnatini tasdiq bilan isbot qilganmiz, ilm va amalda ulamolarga ergashamiz. Ular payg'ambar (s.a.v.)dan nimani naql qilsalar, biz ularni amalda yuzaga chiqaramiz, avvaldan to shu zamongacha bizning vazifamiz shudir" deganlar.

⁶³ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилоқда. – Т.: Ўзбекистон, 2000.- б. 244

⁶⁴ Абул Мухсин Мухаммад Боқир. Баҳоуддин Балоғардон (Мақомоти Хожа Баҳоуддин Нақшбанд). Форсийдан тарж., сўзбоши ва луғат муаллифи Маҳмудхон Маҳдум Ҳасанхон Маҳдум ўғли. – Т.: Ёзувчи, 1993.- б. 78

Naqshbandiya tariqatida mutaassiblik yo'q. U barcha millat, barcha irqdagilarga dasturulamal bo'la oladi. Rost yo'l, to'g'ri yo'lni topa olishda qiblanamo vazifasini o'taydi⁶⁵. Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek "Hozirgi tahlikali dunyoda, turli nizo va adovatlar hali beri barham topmagan murakkab bir vaziyatda Naqshband bobomizning millati, tili va dinidan qat'iy nazar – inson zotini aziz va mukarram bilish o'zaro mehr-oqibat, shafqat va muruvvat muhitini qaror toptirish, etim-esirlarning boshini silash, muhtojlarga yordam berish kabi ezgu da'vatlari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda"⁶⁶.

Halollik, poklik, xolislik va mehnat asosida kun ko'rishni hayotiy qoida qilib olgan, bid'atu xurofot, jaholatu nodonlik, bosqinchiligu millatchilik kabi illatlarga qarshi kurashgan bu tariqat "hozirgi davrda ham yosh avlodni etuk inson qilib tarbiyalashda, ularni axloqiy, aqliy jihatdan kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun naqshbandiya ta'limoti yoshlarda milliy g'oyalarni tarbiyalashda, ularni komil inson qilib etishtirishda bebaho qo'llanma bo'la oladi"⁶⁷.

Bahouddin Naqshband luqmada juda ehtiyot erdilar, taomni hamisha ogoh eyishni vasiyat qilardilar va buni qattiq ta'kidlardilar. Yig'inlari qancha katta bo'lmasin, orada kimdir ovqatni g'aflat bilan esa, uni ogohlantirib, ovqatni g'aflat bilan eyishga qo'ymas edilar. Ovqat g'aflat, g'azab bilan yoki xoxlanmasdan pishirilgan bo'lsa ham emasdilar va boshqalarga ham edirmasdilar. Aytar erdilarki "g'azab, ishtiyoqsizlik va g'aflat bilan qilingan har bir ishda xayru baraka bo'lmaydi, uning natijasi g'aflat bo'ladi. YAxshi amallar va go'zal ishlarni yuzaga kelishi halol taomga va uni ogoh holda eyishga bog'liq".

"Maqomoti Xoja Naqshband" asarida Bahouddin Naqshband hislatlari batafsil yoritilgan. Darhaqiqat u kishi har bir kishidan doimo hushyor, ogoh bo'lishi va har bir daqiqada qilayotgan ishlarini sarhisob qilib turishi va xato-

⁶⁵ Бухорий С.С. Табаррук зиёратгоҳлар. – Т.: Ёзувчи, 1993.- б. 27

⁶⁶ Каримов И. А. Буюк алломага эҳтиром. Баҳоуддин Нақшбанд зиёратгоҳида ўтказилган тантанали маросимдаги сўз. Асарлар. Т. 12. – Т.: Ўзбекистон 2004.- б. 46

⁶⁷ Қиличева К. Баҳоуддин Нақшбанд таълимотида таълим-тарбия масалалари // Тил ва адабиёт таълими. 2001 № 1 б. 47

kamchiliklarga yo'l qo'ymaslikni talab etardilar. Bekorchilikni qoralab, yaxshilikka yaxshilik qilish ulug' ishlardan ekanligini ta'kidladilar.

“Maqomot” asari ko'rsatadiki, Bahouddin Naqshband vaqtini juda qadrlaganlar va har bir on, lahzani haqiqat uchun sarflaganlar. Agar hozirgi vaqtdagi ahvolni tahlil qilsak, biz juda ko'p holda qancha vaqtlar behuda uchib ketayotganiga guvoh bo'lamiz. Holbuki, naqshbandiya tariqati ta'limoti “dunyoda juda ko'p musibat bor, lekin ularning ichida eng buyugi bu vaqtini zoe o'tkazishdir” deb ko'rsatadi.

“Naqshbandiya tariqati uzoq fikriy rivojning natijasi o'laroq maydonga keladi, o'rta asrlardagi ijtimoiy va ruhiy taraqqiyotning cho'qqisi sifatida shakllanadi⁶⁸.

Naqshbandiya tariqatining mafkura sifatida uzil-kesil shakllanishida uch buyuk shaxs – Yassaviy, Abdulxoliq G'ijduvoni va Bahouddin Naqshband alohida xizmat ko'rsatdilar. Agar Yassaviy jamiyatni Allohni tanishga o'rgatgan va bu yo'lda tarkidunyochilikni odat etishga da'vat qilgan bo'lsa, agar Abdulxoliq G'ijduvoni, xuddi Yassaviydek, Allohni tanishga da'vat etish bilan birga, buning uchun tarkidunyo shart emasligini tushuntirgan va Allohga yaqin bo'lishning boshqa yo'li – “bu dunyo”ga faol munosabat va insonning axloqi mukammalligi va tozaligi yo'li mavjud ekanini kashf etgan bo'lsa, Bahouddin Naqshband, xuddi Yassaviydek, Allohni tanishning inson uchun zarurligini tasdiq etishda davom etadi va u ham tarkidunyochilikni rad etadi.

Bahouddin Naqshband o'z ta'limotida Allohga yaqin bo'lishning to'g'ri va eng samarali yo'li – jamiyat saodati uchun yashash, bunyodkorlik, savob ishlar va mukammal axloq ekanini tasdiq etuvchi mafkurani eng izchil va yorqin ifoda etadi. Shu sababli naqshbandiya tariqati o'rta asrlar sharoitida bizning xalqlarimiz tarixida taraqqiyotning qudratli vositasi bo'lib xizmat etdi. Shubhasizki, naqshbandiya tariqatidek ta'limotlar orqali islom dini yurtimizda mahkamlanmasa, xalqlarning moddiy va madaniy hayotida islom birlashtiruvchi va odamlarni savob ishlarga ilhomlantiruvchi faktor sifatida rol o'ynamasa, shu bilan birga tariqatda

⁶⁸ Қосимова З., Наврӯзова Г. “Мақомоти Ҳазрати Хожа Нақшбанд” руҳий баркамоллик дастури // Халқ таълими. 1995 № 5-6 б. 51

tarkidunyochilikdan kechilmasa, hayotga faol munosabat tasdiq etilmasa, jamiyatga fidokorona xizmat axloqiy qoida sifatida, muvaffaqiyatli ravishda, targ'ib etilmasa, Temur va temuriylar davrida bizning xalqimiz o'z davlatini barpo eta olmas va iqtisod va madaniyat sohasida olamshumul yutuqlarga erisha olmas edi”.

Shu o'rinda hamma shayxlar va avliyoga oid bir masalaga alohida to'xtalib o'tmasak xojagon-naqshbandiya tariqatining mohiyati va tarixiy roli ham to'la ravshan bo'lmay qoladi.

Shayxlar va avliyo o'rta asrlarda jamiyat hayotida rahnamolik rolini o'ynovchi shaxslar, deb hisoblanar va haqiqatan ham shunday edi. Alisher Navoiy shayxlar va avliyoning insoniyat hayotidagi joyini quyidagicha ta'rif etadi: Muhammad (s.a.v.) – payg'ambarlarning so'ngisi edilar. U kishidan so'ng payg'ambarlar kelmaydigan bo'ldi. Payg'ambardan so'ng uning o'rinbosarlari – xalifalar islom dunyosiga rahnamolik qildilar. Ulardan so'ng islom yo'lidan adashganlarni to'g'ri yo'lga solmoq vazifasi mashoyix va avliyo zimmasiga tushdi. Endi to qiyomatgacha shunday bo'ladi⁶⁹.

Naqshbandiya tariqatining boshqa suluklardan bir qancha farqli tomonlari mavjud:

Birinchidan – naqshbandiya suluki qo'l mehnati bilan, halol ter to'kib hayot kechirishga targ'ib qiladi. Bahouddin Naqshbandning hayoti bunga o'rnak bo'lib, mashhur “dil ba yoru dast ba kor” degan so'zlari ana shuni ifodalaydi. Hazrati Xoja o'z ovqatlarini ziroat orqali topar, erlariga don, sabzi, turp, piyoz ekar, ho'kizlarini ehtiyotlab asrar, qo'y va sigirlaridan doimo boxabar bo'lib turardilar. Bu esa Rasulullohning sunnatlariga muvofiq edi. Zotan Rasulullohning o'zlari: “haqiqiy musulmon bu dunyoni deb, u dunyosini tashlamaydi, u dunyo deb, bu dunyosini qo'ldan bermaydi”, degan edilar. Naqshbandiya sulukiga kirgan kishilar oilasini obod qilish, mamlakatga qarash, savdo-sotiq bilan shug'ullanish va boshqa huquqlarga ega bo'lganlar. Shuning uchun ham bu suluk tez rivojlanib, keng yoyilgan.

⁶⁹ Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. МАТ. 20 томлик, 17-том. – Т.: Фан, 2001.- б. 14

Ikkinchidan – naqshbandiya sulukidagilar boshqa sulukdagilar kabi “zikri a’loniya” bilan emas, balki “zikri xufiya” bilan shug’ullanganlar.

Uchinchidan – naqshbandiya sulukiga mansub valiyalarda bemordan kasallikni o’ziga olib, so’ng bu illatni o’zlaridan chiqarib tashlash quvvati mavjud edi.

To’rtinchidan – naqshbandiya sulukidagi avliyolar karomatfurushlikka keskin qarshi bo’lganlar. Bahouddin Naqshbandning bu boradagi fikrlari “Maqomotda” keltirilgan. Muridning asosiy maqsadi ma’naviy va ruhiy poklanish, Allohga etishish va vahdat hosil qilishdan iborat. Hazrati Xoja musulmonlar og’ir holatga tushub qolganlaridagina karomat ko’rsatganlar. Boshqa hollarda esa soliklarni qiziqtirish yoki ularga azob berish maqsadidagina bu ishga qo’l urganlar. U kishi o’zlarining kuchlari hamda avliyolik quvvatlari bilan odamlarni ma’naviy va ruhiy poklashga, xalqqa jafo etkazayotgan zolimlarning payini qirqishga, xalq ommasini ilmu ma’rifat bilan qurollantirishga, Rasululloh sunnatlariga to’liq amal qilib, dinni bid’atlardan tozalashga harakat qilganlar. Xalq ichida bu zotning shu qadar obro’-e’tibor topishining sababi ham shundadir.

Tasavvufning eng buyuk xususiyatlaridan biri, faqat nazariy jihat bilan cheklanib qolmay, tasavvuf tamoyillarini tariqatlar yo’li orqali amaliy hayotda tadbiq etish hamdir. Nazariyotda “tasavvuf” deb atalgan bu oqimga amaliy hayotda “tariqat” deyiladi.

“Tariqatni tasavvufning amaliy qismi, deb ta’riflaydilar. Darhaqiqat, shunday, chunki pir-muridlik qoidalari, odobiga rioya etish, solik (ya’ni, tariqatga qadam qo’ygan yo’lovchi) bajarishi kerak bo’lgan barcha yo’riqlar, irodat va ishorat usullari shu tariqat ichiga kiradi”. Pirsiz solik manzilga etolmaydi. Chunki odam o’zini o’zi nazorat qilishi qiyin, toki birov rahnamolik qilib, yo’l ko’rsatmasa, mushkuli oson bo’lmaydi. Rahnamo bo’lmasa, hatto eng yaxshi niyatlar ham samara bermay, qalbdagi zavqu shavq noto’g’ri yo’lda sarf bo’lishi, muhabbat isyonga aylanishi hech gap emas. Shuni e’tiborga olib, tajribali pirga qo’l berib, iroda-ixtiyorni unga topshirganlar. Shu ma’noda tariqatni irodat ham deyilar. Manbalarda pir-muridlik qoidalari, haqiqat pirlarining xususiyatlari

belgilari aniq aytilgan bo'lib, mutasavviflarimiz va olimlarimiz soxta Shayx va darveshlarni doim qattiq tanqid ostiga olishgan.

Xulosa qilib aytganda Yusuf Hamadoniy ta'limoti asosida vujudga kelgan Abdulxoliq G'ijduvoniyni "Xojagon" tariqati Bahouddin Naqshband davrida keng yoyilib, Naqshbandiya yo'nalishini tashkil etadi. Bu ta'limot aholi orasida tasavvuf g'oyalarini keng yoyish bilan islom dinini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Bahouddin Naqshband 1318 yil Buxoro yaqinidagi Qasri Orifon (Kogon tumani)da tug'ilib, 1389 yil u erda marhum bo'lgan. Qabri Qasri Orifonda ziyoratgohdir. Bahouddin tug'ilgan joy Qasri Hinduvon deb atalgan, keyin u kishining sharofatidan Qasri Orifonga aylangan ekan. Hazratning ismlari Muhammad, otalari Muhammad Jaloliddin, bobolari esa Sayyid Burhoniddindir. Bu zoti sharif nasablari ota tomonidan Hazrat Ali raziyallohu anhuga, ona tomonidan esa Abu Bakr Siddiqqa borib taqaladi.

"Naqshband" Hazrati Xojaning laqablari bo'lib, matoga naqsh(gul) solishni bildiradi. Bahouddin Naqshband va uning otasi kimxobboflik kasbi bilan shug'ullangan va do'koni bo'lgan. "Hazratga Naqshband nomini berilganligiga ikki sabab bor. Biri shuki, bu zoti sharif kimxoga, ya'ni matoga naqsh solish (gul solish) kasbi bilan shug'ullangan. Ikkinchisi esa, naql qilinishicha, Hazrat Bahouddin kim bilan suhbatlashsalar, shu suhbatdan so'ng Allohning nomi o'sha odam qalbiga naqshlanib qolarkan. Shu sabab bu kishiga Naqshband unvoni berilgan".

Bahouddin Naqshbandning hayoti va faoliyati haqida mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlardan S.S. Buxoriy⁷⁰, Izzat Sulton⁷¹ asarlarini ta'kidlash lozim. K.Kattaev, S.Karimov tadqiqotlarida⁷² nega Bahouddin Naqshband Amir Temur bilan uchrashmagan yoki unga pir bo'lmagan? degan savol javob berilgan.

⁷⁰ Бухорий С.С. Дилда ёр (Хазрат Баҳоуддин Нақшбанд). – Т.: Ғ. Ғулом ном. Адабиёт ва санъат наш., 1993; Бухорий С.С. Табаррук зиёратгоҳлар. – Т.: Ёзувчи, 1993

⁷¹ Иzzат Султон. Баҳоуддин Нақшбанд абадияти. – Т.: Ған, 1994

⁷² Каттаев К. Ғўри Амир макбараси ва қабртошлари тарихи. – С.: Зарафшон, 2008.- б. 93; Каримов С. Амир Темур ва нақшбандийлик. Таълим тизимида талаба ёшларнинг ғоявий-мафкуравий тарбияси ва уларнинг уйғунлигини таъминлашнинг долзарб муаммолари. Мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция. б. 50-54

Unga ko'ra Amir Temur Bahouddin Naqshband shaxsini juda yaxshi bilgan va uning ta'limotining nazariy jihatlarini o'zining mavqei darajasida o'zlashtirib o'zining shaxsiy turmush tarziga va siyosatiga tadbiq qilishga doimo harakat qilgan. Xalqimiz e'zoz bilan tilga olayotgan Amir Temur o'gitlarida shunday narsa keltirilgan piri komil Shayx Bahouddin Naqshbandning "kam egin, kam uxla, kam gapir" degan pandu nasihatlariga amal qildim. Arkonu davlatga, barcha mulozimlarga ham aytar so'zim shu bo'ldi: "Kam englar – ocharchilik ko'rmasdan boy-badavlat yashaysizlar, kam uxlanglar – mukammallikka erishasizlar, kam gapiringlar – dono bo'lasizlar"⁷³. Amir Temur o'z davlat siyosatini olib borishda Shayx Bahouddin Naqshbandning o'gitlariga amal qilgan va uning barcha erishgan muvaffaqiyatlarida bu ta'limotning xizmatlari bor ekan. Biz mustaqil va ustivor davlat qurmoqchi ekanmiz, yuqorida tilga olingan allomalarning o'gitlarini o'rganishimiz, unga amal qilishimiz va boshqalarga ham shu yo'ldan borishga da'vat etishimiz kerak.

Bahouddin Naqshbandning to'rtta shogirdi bo'lgan: 1) Xoja Alouddin Attor hazrat Bahouddinning birinchi va etuk xalifasi. To'liq ismi Muhammad ibn Muhammad al-Buxoriy bo'lib, asli Xorazmdan edi. U hali madrasani tugatmasdanoq hazrati Xojani o'ziga pir tutib, uning sulukiga kiradi. Hazrati Xoja uni e'zozlab, domodlikka qabul qiladilar. Attor bir umr hazrati Xoja bilan birga bo'lib, u kishining ishorati bilan ko'p kishilarni o'z tarbiyasiga oladi. «Bahouddin Naqshband hayotliklarida ko'p toliblarning tarbiyasini Alouddin Attorga havola etdilar. Va aytardilarkim Alouddin bizga ancha engillik yaratdi. Valoyatning anvari va asari undan to'la va mukammal darajada yuzaga keldi. Uning suhbatining barakoti va tarbiyalari bilan ko'p toliblar bo''du nuqson poygohidan qurbi kamol peshgohiga etishdilar va akmal martabasini topdilar».

Xoja Alouddin Attorning fandagi asosiy xizmati Xoja Bahouddin Naqshband haqida o'zi va boshqalar bilganlarini yozdirib kitob qilish ishiga bosh-qosh bo'lganidir. Jumladan, Bahouddin Naqshbandning ikkinchi xalifasi Xoja Muhammad Porso o'zining Bahouddin Naqshbandga bag'ishlab yozgan «Risolai

⁷³ Amir Temur. Amir Temur u'gitlari. Tuзуvchilar Б.Ахмедов, А.Аминов. – Т.: Наврўз, 1992.- б. 58

qudsiya» asarini yozishga ikkilanib turgan paytida, Xoja Alouddin Attor unga dalda bergan. Muhammad Porso yana ushbu kitobda Xoja Bahouddin haqida ma'lumotlarni u kishining e'tiborli yor-do'stlari to'plab «Maqomot» (Hayotiy lavhalar) shakliga keltirayotganlari va xudo xoxlasa tez orada ul ish nihoyasiga etishi haqida ham xabar beradi.

Saloh ibn Muborak al-Buxoriy o'zining «Anis at-tolibin» asarida, Xoja Bahouddin Naqshband haqidagi ushbu asar Alouddin Attor topshirig'iga ko'ra yozilganini kitob boshlanishidayoq ko'rsatib o'tgan. Alouddin Attor ko'p hikoyalarni (naql) o'zi aytib bergan va kitobda bu hikoyatlar «Xoja Alouddin aytmishlarki» deb boshlanadi. Demak, Bahouddin Naqshband haqida yozilganlar bir qismi Saloh ibn Muborak, Xoja Muhammad Porso qalamiga mansub bo'lsa, bir qismi Xoja Alouddin Attor va boshqa muxlislar hikoyalari asosida yozilgan.

«Rashahot»da yozilishicha, Xoja Alouddin Attor aytgan tasavvuf va tariqatga oid o'gitlardan ba'zilarini Xoja Muhammad Porso yig'ib borgan va ularni Xoja Bahouddin haqida yozgan «Risolai qudsiya» asariga qo'shmoqchi ham bo'lgan, biroq adolatli ish bo'lmay qoladi, degan fikrda bu qo'shimcha ma'lumotlarni (zayl) alohida risola tarzida yozgan, bu asar «Maqomoti Xoja Alouddin Attor» deb ataladi. Xoja Muhammad Porsoning yozishicha, Xoja Alouddin Attor Chag'oniyonning Dehnav degan joyida yashagan. Navoiyning yozishicha, u bu erga Bahouddin Naqshband vafotidan (1389 y.) so'ng kelib o'rnashib qolgan. Ungacha piri bilan Buxoroda bo'lgan. Hijriy 795 yil sha'bon-ramazon oylarida (melodiy 1393 yil iyun-iyul) Bahouddin Naqshband qabrini ziyorat qilish maqsadida Buxoroga kelib ketgan. Oradan etti yil o'tgach, 1400 yil 18 martda yuqorida qayd etilgan Dehnav (hozirgi Denov)da vafot etgan va o'sha erda dafn etilgan.

2) Xoja Muhammad Porso (1345-1419) hazrati Xoja Buzurgning ikkinchi xalifasi. To'liq ismi Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Hofiz al-Buxoriy. Qabrlari Madinada. «Rashahot»da yozilishicha, Muhammad Porso riyozat chekib yurgan paytida, bir kuni hazrati Xoja huzuriga kelib, eshik oldida turadi. Tasodifan ko'chaga chiqib uni ko'rib qolgan kanizdan «Ko'chadagi kim?»

deb so'raydilar hazrati Xoja. Kaniz «bir porso (dindor) yigit turibdi» deydi. Hazrati Xoja tashqariga chiqib, Xoja Muhammadga «siz porso ekansiz» deydilar. Shu kundan boshlab el orasida u «porso» laqabi bilan mashhur bo'lib ketadi. Porso pirining mehrini qozonadi. Shuning natijasida hazrati Bahouddin vafotlaridan avval Muhammad Porsoni o'z o'rinlariga tayin qilgan bo'lsalarda, biroq u o'zidan yoshi ulug'roq bo'lgan Xoja Alouddin Attorga bu vazifani topshiradi.

Xoja Muhammad Porso nafaqat valiulloh, balki o'z davrining yirik olimlaridan ediki, uning 20 dan ortiq asarlari bizgacha etib kelgan. Hayoti va ilmiy merosi Xidirova Nargiza O'rinovnaning nomzodlik dissertasiyasida maxsus tadqiq etilgan⁷⁴.

3) Xoja Alouddin G'ijduvoni Bahouddin Naqshbandning uchinchi xalifasi. «Rashahot»da yozilishicha, G'ijduvonda tug'ilgan. Qabri buxoroning janubida Iydgohga yaqin Filmarza dahasining o'rtasidagi tepalikdadir. Xoja Alouddin yigitlik vaqtida ham hazrat Bahouddinning mulozamat va qabullarini topgan edi. Bahouddin Naqshband vafotlaridan so'ng u kishining ko'rsatmalari va ishoralari bilan qolgan umrini Xoja Muhammad Porso va u kishining o'g'li Xoja Burhoniddin Abu Nasr Porso suhbatlarida o'tkazganlar. Va ul buzurgvorlar ham bu kishini suhbatlarini g'animat bilganlar. 1426 yili 22 yashar Xoja Ahror Buxoroda bu zotning suhbatlariga etganlarida Xoja Alouddin G'ijduvoni 90 yashar muysafid edi.

4) Ya'qub Charxiy Bahouddin Naqshbandning to'rtinchi xalifasi, etuk olim. To'liq ismi Ya'qub ibn Usmon ibn Mahmud al-G'aznaviy summali Charxiy bo'lib, Mavlono nomi bilan mashhur. 1447 yili vafot etgan. Qabri Dushanbe yaqinidagi Halg'atu qishlog'ida. «Safiyning yozishicha, Charxiy ota-onasi bilan Afg'onistonning G'azna shahrida yashab, so'ng shu shaharga tobe' bo'lgan Charx qishlog'iga ko'chib keladi. Charxiy dastlabki bilimni G'aznada oladi, so'ng Misr va Hirotda davom ettiradi. Keyinroq esa Buxoroga kelib, madrasalarning birida o'qiy boshlaydi. Yosh Charxiy boshqa talabalar qatori tez-tez Bahouddin

⁷⁴ Хидирова Н.Ў. Хожа Муҳаммад Порсонинг хожагон-нақшбандия тариқатининг ривожланишида тутган ўрни ва roli (XIV a.o.-XV a. б.): Тарих фан. ном. ... дис. – Ташкент: 2008

Naqshband suhbatida bo'ladi va Bahouddin Naqshband unda katta taassurot qoldiradi».

Shahar ulamolari va ulug' kishilari orasida katta e'tibor qozongan Charxiy Naqshband bilan xayrlashib vatani Charxga qaytadi. Bir necha oylardan keyin Charxiy yana Buxoroga qaytib kelib Bahouddin Naqshbandga qo'l beradi. Naqshband uni Alouddin Attorning tarbiyasiga topshiradi. Charxiy bir necha muddat Naqshband va Attor xizmatida turgach ota yurti Charxga ketadi. Lekin SHahrisabzga etganida Naqshbandni vafot etganini eshitib, bir necha muddatdan keyin Badaxshonga keladi. Charxiyni bu erdan Alouddin Attor o'z huzuriga chaqirib oladi.

Muhammad Doroshukuhning «Safinatul avliyo» (17-asr) asarida Xoja Bahouddin Naqshband Mavlono Ya'qub Charxiyni muridlikka qabul qilgach, uni Xoja Alouddin Attorga topshirilgani va u kishining vafotlaridan so'ng, Alouddin Attor suhbatida kamol martabasiga etganligi qayd etilgan.

Xoja Alouddin Attor Bahouddin Naqshbandning ashoblaridan bo'lmish naqshbandiya tariqatining davomchisi – Mavlono Ya'qub Charxiy bilan juda yaqin do'st bo'lganlar. Bahouddin Naqshband vafotlaridan so'ng, Mavlono Ya'qub Charxiy ma'lum muddat Badaxshonda istiqomat qilib turgan paytda Alouddin Attor maktub yo'llab, u kishini o'z yonlariga kelishga chorlaydilar. Charxiy do'stining bu iltimosini qabul qilib, Dehnavga keladi va to Alouddin Attor vafotigacha o'sha erda yashaydi, so'ngra Hisor viloyatiga o'tib Halg'atu qishlog'ida vatan qilib qoladi. Hozir qabrlari o'sha erda va katta ziyoratgoh, bu joy «Hazrati Mavlono» nomi bilan mashhurdir.

Mavlono Ya'qub Charxiy Naqshbandiya ta'limoti, turli diniy ilmlarga oid o'ndan ortiq asarlar yozgani ma'lum. Uning hayoti va ilmiy merosi M.Razzoqovanning nomzodlik dissertasiyasida tadqiq etilgan⁷⁵.

Mirzo Ulug'bek davrida (1409-1449) Samarqandda naqshbandiya tariqatining rahnamosi sifatida faoliyat ko'rsatgan Nizomiddin Xomushning (tax.

⁷⁵ Раззокова М.С. Яъқуб Чархийнинг илмий мероси ва унинг нақшбандия тариқати ривожига тутган ўрни (XIV-XV асрлар): Тарих фан. ном. ... дис. – Ташкент, 1998

1360-1450 yy.) hayoti va faoliyati endi o'rganilmoqda. «Rashahot»dagi «to'qson yashar bo'lgan edilar» degan ma'lumotga asoslanib, Nizomiddin Xomushni 1360-1450 yillarda yashagan deyish mumkin. Amir Temurning siyosat maydoniga kirib kelishi arafasida tug'ilgan Xomushning asosiy faoliyati Movarounnahrda Xalil Sulton, Mirzo Ulug'bek va Xurosonda Shohruh, Mirzo hukmronligi davrida Samarqandda kechgan. Xuddi shu davrda tasavvufning xojagon-naqshbandiya tariqati bu o'lkalarda katta e'tibor qozondi va ijtimoiy guruhlarining barcha tabaqalari orasida keng yoyildi.

XV asrning birinchi yarmida Movarounnahr va Xurosonda, xususan Samarqandda katta obro'-e'tiborga, hurmatga sazovor bo'lgan, o'sha davr ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-mafkuraviy hayotida o'ziga xos o'rin tutgan naqshbandiya tariqatining rahnamosi – Nizomiddin Xomush tariqatni rivojlanish cho'qqisiga olib chiqqan Xo'ja Ahrorning asosiy ustozlaridan biri bo'lgan. Xo'ja Ahrorga bag'ishlangan «Rashahot» asari, balki shuning uchundir, Nizomiddin Xomush hayoti va faoliyatini o'rganishda eng asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. U haqda boshqa manbalarda «Rashahot»dagidek ma'lumotlar berilmagan. «Rashahot»dagi ma'lumotlar esa uning o'z shogirdi Xo'ja Ahror bilan bo'lgan munosabatlariga oid.

Xo'ja Ahror haqida ma'lumot beruvchi agiografik manbalar, keyingi davrda yaratilgan asarlar, risola va maqolalarning deyarli barchasida uni Nizomiddin Xomush suhbatiga yetganligi ta'kidlanadi.

Jomiyning N. Lome'iy tomonidan usmonli turkchaga o'girilgan «Nafaxot ul-uns» asarida o'qiymiz: «kondilardan (o'zlaridan) manquldurki, oytdilar, yigirma yoshimda ekan. Toshkentda banga (manga) tahsili ilmi zohiri orzusi g'alaba etub,

Samarqand ketdim va ul zamonda Samarqandda Ulug'bek madrasasida Mavlono Nizomiddin Xomush mudarris edi va aning ahvolini, istig'roqi va jazbasini eshitmish edim, pas mavlonoya taftish etdim, madrasaya ketmish bo'ldim. Madrasaya borub ko'rdim, dars ta'lim etar. Bon (man – B.M.) daxi bir go'shada mustame' o'lub, sokin va samiy (jim va eshitib – B.M.) o'turdim». Bu ma'lumotlarni Ahmad ibn Mustafo Toshko'pirzodaning (v. 1561) «Ash-shaqoiq, an-No'moniya» asarida ham o'qishimiz mumkin. Xojagon-naqshbandiya tariqatining murshidi bo'lgan Nizomiddin Xomushni Ulug'bek madrasasida mudarrislik qilgani juda e'tiborli va qiziqarli holdir. Chunki mudarrislarni Mirzo Ulug'bekning o'zi boshqargan⁷⁶.

Naql qilinishicha, Xo'ja Ahror Samarqandga borib, Mavlono Xomush dars beradigan hujraga kirib, shogirdlar qatorida, bir burchakda sukut saqlab o'tiradilar. Mavlono darsni tugatib, Xo'ja Ahrorga qarab deydilarki, nega jim o'tirmoqni ixtiyor aylading? Davrada gapirmay, sukut saqlab o'tiradiganlar ikki toifadir. Biri oliy maqomga erishganlar bo'lib, undaylar sukuti buyukligidan va kamtarligidan nishona. Ikkinchisi esa bilimsiz kishilar bo'lib, ular o'z nodonligini yashirish maqsadida jim turadilar va hiyla ishlatadilar.

Toshkentdan ilm o'rganish maqsadida sayohatga chiqqan Xo'ja Ahror Nizomiddin Xomush «hol»ini (so'fiy qalbida beixtiyor o'z-o'zidan paydo bo'ladigan ruhiy kechinma. Hol Haq tuhfası va hadyasi bo'lib, insonning irodasi va harakatiga tobe emas), «istig'roq»ini (insonning shavqu-zavq, hayajon bilan o'zini bilmas darajada fikrga, hayratga cho'mishi) va jazbasini eshitib madrasaga kelib, undan dars olgan. «So'ngra «Nafahot»da yozilishicha, Xo'jamiz (Xo'ja Ahror – B.M.) bir kuni Mavlono

⁷⁶ Бузруков М. Низомиддин Хомуш – Хожа Аҳрор устози // Республика ёш олимлар илмий-амалий конференцияси материаллари. – Т.: Фан, 2007.- б. 75

Xomushga markab (ot-ulov) berib alarni Toshkentga boshlab kelganlar. O'z hovlilarida Mavlono Nizomiddin Xomushni mehmon qilib, obdasta tutib, birga namoz o'qib, xizmatlarini sidqi dildan qilib, samimiy mehmon qilganlar».

«Rashahot»da yozilishicha Xo'ja Ahror Samarqandga kelganda, uning otasi Nizomiddin Xomushga odam yuborib «men uni amakisining qiziga uylantirmoqchiman, agar darhol kelib, uylanmasa, birodarim mendan xafa bo'ladi» deb qattiq undaydi. Nizomiddin Xomush Xo'ja Ahrorga ko'p nasihatlar qiladi va oxirida «biz bilmasmiz, agar kishi majburlik, chorasizlikdan qiyin ahvolda, aro yo'lda qolsa, har joyda o'ziga qaror qila olmasa, hech ish va hech narsa bilan oromi bo'lmasa, unda uzrlidir» deydi. Bizningcha, otasining xohishi bilan bo'lgan bu nikoh Xo'ja Ahrorning B. Umrzoq aytganidek yigirma besh yoshlarida emas, balki yigirma bir yoshlarida amalga oshgan va uni o'qishni tashlab Toshkentga qaytib ketishiga sabab bo'lgan.

Xo'ja Ahror yigirma ikki yoshida tog'asi bilan Samarqandga ikkinchi marta kelib, bu yerdan Buxoroga boradi. Yo'lda bir hafta Sirojiddin Pirmastiy bilan suhbat qilib, Mavlono Hisomuddin Shoshiyni ko'rgach, Xo'ja Alouddin G'ijduvoniylar suhbatiga yetadi. Alouddin G'ijduvoniylardan siz Hazrati Xo'ja (Ahror)ga tez ijozat berdingiz? Deb so'raganlarida «Xo'ja Ubaydulloh bizning yonimizga yetuk, mukammal bo'lib keldi va bizning yonimizdan yetuk, mukammal bo'lib ketdi» degan ekan.

Xo'ja Ahrorning Alouddin G'ijduvoniylar oldiga yetuk, mukammal bo'lib borishida Nizomiddin Xomush va uning suhbatlarini alohida o'rni bor. Xo'ja Ahror G'ijduvoniylar suhbatida qirq kun bo'lib, Marv yo'lidan Hirotga boradi. To'rt yil Hirotga bo'lgach Balx va Shibirg'on yo'li orqali Halg'atuga borib uch oy Ya'qub Charxiylar xizmatida bo'ladi, unga bay'at qilib, qo'l beradi.

Mavjuda Razzoqovanning yozishicha Xo'a Ahror Valiy yoshlik yillarida Samarqand va Buxorodan o'zini qoniqtiradigan pir topolmaydi. XV asrda Movarounnahrda murshid sifatida nom qozonolgan shayx bu Nizomiddin Xomush edi. Xo'ja Ahror Valiy Nizomiddin Xomush bilan yaqin aloqada bo'lgani, uni Toshkentga o'z uyiga olib kelganligiga qaramay, nima uchundir unga qo'l bermaydi. Xo'ja Ahror Valiyning Samarqand va Hirotida ko'p vaqt birga bo'lgan qadrdon do'sti, keyinchalik Abdurahmon Jomiyga pir bo'lgan Mavlono Sa'diddin Qoshg'ariy esa Mavlono Nizomiddin Xomushning muridi edi⁷⁷. Xo'ja Ahrorning nega Xomushga qo'l bermaganligi alohida mavzu. Chunki u hazrati Naqshbandga bevosita qo'l bergan murshid izlar edi.

XV asrning birinchi yarmida Movarounnahr va Xurosonda, xususan Samarqandda katta obro'-e'tiborga, hurmatga sazovor bo'lgan, o'sha davr ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-mafkuraviy hayotida o'ziga xos o'rin tutgan naqshbandiya tariqatining rahnamosi – Nizomiddin Xomush tariqatni rivojlanish cho'qqisiga olib chiqqan Xo'ja Ahrorning asosiy ustozlaridan biri hisoblanadi. Ushbu shaxs naqshbandiya tariqati vakillaridan birinchilardan bo'lib davlat rahbari bilan munosabatda bo'lgan deyish mumkin. Bu borada ham u Xoja Ahrorning ustozlari desak xato bo'lmaydi.

⁷⁷ Раззокова М. Мавлоно Яъқуб Чархий – Хожа Ахрорнинг пири // Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2004 й. № 2

Xulosa

Kommunistik mafkura hukmron bo'lgan yillarda tariximiz bir tomonlama millatimiz hamda ruhimizga yot bo'lgan marksizm-leninizm deb atalmish g'oya ta'sirida yozilgan. Yuz bergan voqea va hodisalar biryoqlama yoritilgan, yirik din va jamoat arboblari, tariqat peshvolarining hayoti, faoliyati hamda bu haqdagi ularning karomatlari haqidagi agiografik manbalar deyarli o'rganilmagan.

Mustaqillik tufayli o'tmish madaniyatimiz va qadriyatlarimiz merosini qo'lyozma manbalar asosida xolisona o'rganish, ularni davr talabidan kelib chiqqan holda baholash, yangicha ilmiy tahlil qilishga keng yo'l ochildi. Tasavvuf g'oyalari ham jiddiy tadqiq etila boshlandi, unga oid manbalarni ona tilimizda o'qish imkoniga ega bo'ldik. Buyuk mutafakkir va allomalarning tavallud ayyomlari nishonlandi, xalqaro ilmiy-nazariy anjumanlar o'tkazildi, maqbaralari tiklandi, ular xaqida kitoblar yozildi, shuningdek, asarlari o'zbek tilida nashr qilindi. Tasavvuf manbalariga oid qo'lyozmalar fixristi tuzildi. Jiddiy tadqiqotlarni jamlagan to'plamlar nashr qilindi. Bu esa tasavvuf ilmi, uning mohiyatini teranroq anglashga zamin yaratdi.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tasavvuf tariqatlariga oid tadqiqotlarni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin: birinchisi tasavvuf ta'limotiga oid yozma manbalar tadqiqoti; ikkinchisi tariqat vakillarining hayoti va faoliyatini o'rganish; uchinchisi tariqat amaliyoti – so'fiylarning ma'naviy urf-odatlar bilan bog'liq amallarni metodologiya, psixologiya, filologiya, tekstologiya va boshqa fan sohalari nuqtai nazaridan tahlil etish; to'rtinchisi tasavvuf ta'limotining falsafiy-ijtimoiy jihatlarini o'rganish; beshinchisi yuqoridagi fikrlarning barchasini o'z ichiga olgan umumiy tadqiqotlar. Biz ushbu malakaviy bitiruv ishimizni yozishda dastlabki ikki guruhga oid tadqiqotlardan foydalandik.

Tasavvuf bag'rida qodiriya, yassaviya, kubraviya, chishtiya, suhravardiya, naqshbandiya, shozaliya, xilvatiya, mavlaviya, badaviya, dasuqiya va boshqa bir qancha tariqatlar shakllangan va rivojlangan. Olimlarning aniqlashicha,

tasavvufda 160 dan ziyod tariqat tarmoqlari bo'lgan. Tariqatlarning ko'pligi ham e'tirozlarga sabab bo'lmaydi. Har bir tariqat sohibining zikr va odob darslari boshqa-boshqa bo'lsa-da, maqsadi bitta: Alloh roziligini topish, Allohning sevgan va rozi bo'lgan bandasi sifatida uning jannati va jamoliga musharraf bo'lish. Yo'l tanlashdagi usul farqi asosiy g'oyaga taalluqli emas.

Mustaqillik yillarida tasavvuf ta'limotini o'rganishga bag'ishlangan ishlarni tahlil qilar ekanmiz, mazkur yo'nalishda yaratilgan asarlar orasida xalqimiz tarixida tasavvuf allomalarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rnini aniqlashga bag'ishlangan ishlar ham mavjudligi ko'zga tashlanadi. B.Valixo'jaev, Z.Qutiboev, E.E.Karimov, M.Nuritdinov kabi olimlarning tadqiqotlarida yurtimizda yetishib chiqqan allomalarning tassavuf ta'limoti taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, tariqatda tutgan o'rni, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi faoliyati to'g'risida so'z yuritilgan

Ma'lumki Amir Temurning islom dinining yirik ruhoniylariga hurmat-e'tibor bilan qaragani, ular bilan muntazam ravishda muloqot va suhbatlar o'tkazgani, hatto ba'zi ulug' shayxlarni o'zining piri deb e'tirof etgani tarixiy manbalar orqali bizgacha yetib kelgan. Temur va uning avlodlari davrida ruhoniylar daxlsiz hisoblangan. Amir Temurning ruhoniylar vakillari bilan bo'lgan munosabati qator tadqiqotlarda etarlicha yoritilgan deyish mumkin. Ammo uning XV asrning birinchi yarmida hukmronlik qilgan vorislarining ruhoniylar bilan munosabati kam o'rganilgan.

XV asrning birinchi yarmida Temuriylar davlatida kubraviya, yassaviya, naqshbandiya, ishqiya va boshqa tariqatlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning eng faollari kubraviya va naqshbandiya bo'lgani uchun vazkur malakaviy bitiruv ishida shu ikki tariqat vakillarining faoliyatini yoritishga harakat qildik.

Bobo Kamol Jandiy tomonidan asos solingan Kubraviya tariqatining yangi tarmog'iga mansub bo'lgan Husayn Xorazmiy o'limi bilan bu tarmoq yakun topadi. Husayn Xorazmiy o'z silsilasini davom ettiradigan muridlarni qoldira olmagan bo'lsa kerak. Biroq Temuriylar orasida ham, ko'chmanchi aholi orasida ham Husayn Xorazmiy ega bo'lgan siyosiy ta'sirga keyinchalik Yassaviya va

Naqshbandiya Shayxlari ham erishganlar. Shu tariqa Kubraviya tariqati o'z faoliyati bilan O'rta Osiyoning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotida Yassaviya va Naqshbandiya tariqatlaridan ustun turgan.

Kubraviya tariqatining qiziq jihatlaridan biri ushbu tariqat tarixida Husayn Xorazmiy nomi bilan XV, XVI va XVII asrlarda faoliyat olib borgan uchta tarixiy shaxsning mavjudligi hisoblanadi. Ularning nomlari, yurtlari va tariqatlaridagi monandlik tufayli keyingi davr manbalarida ularning nomlari, nasablari, tug'ilgan va vafot etgan sanalari, umuman shaxsiyatlari borasida ba'zi tarixchi olimlar tomonidan bir muncha chalkashliklarga yo'l qo'yilgan.

Mazkur malakaviy bitiruv ishida Temuriylar davrida Xorazm va Xuroson hududida faoliyat olib borgan Husayn Xorazmiy haqida so'z yuritildi. Uning hayoti haqida, afsuski ma'lumotlar juda kam. O'zining "Qunuz al-haqoyiq" va "Yanbu al-asror fi nasaix al-abror" adabiy asarlaridan ma'lum bo'ladiki, u kamida ikki marta Dashti Qipchoqda istiqomat qilgan ko'chmanchilar bilan bu hududni aylanib chiqqan va Temuriylarning Xorazmdagi hukmdori Shoh Malik (v. 1426) huzurida maslahatchi bo'lib xizmat qilgan. Husayn Xorazmiy taxminan 1430 yilda sodir bo'lgan dashtiqipchoqlik Abulxayrxon boshchiligidagi ko'chmanchi aholi vakillaridan Xorazmni himoya qilish jarayonida faol harakat olib borgan va bu faoliyat natijasida uning nomi tanilgan.

Temuriylar davlatida XV asrning birinchi yarmida Bahouddin Naqshbandning uchta xalifasi (o'rinbosari) faoliyat ko'rsatgan. Buxoroda – Muhammad Porso (1345-1419) va Alouddin G'ijduvoni, Badaxshon va Chag'aniyonda – Ya'qub Charxiy (v. 1447). Bulardan tashqari Mirzo Ulug'bek davrida (1409-1449) Samarqandda xojagon-naqshbandiya tariqatining rahnamosi sifatida faoliyat ko'rsatgan Nizomiddin Xomush va Hasan Attor (keyinchalik Ulug'bekdan Hirotga Shohruhni oldiga ketgan) ham faoliyat olib borgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997.
2. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интиломда. – Т.: Ўзбекистон, 2000.
4. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
5. Каримов И. А. Буюк алломага эҳтиром. Баҳоуддин Нақшбанд зиёратгоҳида ўтказилган тантанали маросимдаги сўз. Асарлар. Т. 12. – Т.: Ўзбекистон 2004.
6. “Миллий ғоя тарғиботи ва маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш тўғрисида” Ўз. Р. Президентининг қарори // Ўзбекистон овози. – 2006 й. 26 август № 99-100
7. Амир Темур. Амир Темур ўғитлари. Тузувчилар Б.Ахмедов, А.Аминов. – Т.: Наврўз, 1992.
8. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Саҳиҳи Бухорий: ал-Жомий ас-саҳиҳ (Ишонарли тўплам). Шайх Абдулазиз Мансур таҳририда. 1-китоб. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
9. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Саҳиҳи Бухорий: ал-Жомий ас-саҳиҳ (Ишонарли тўплам). Шайх Абдулазиз Мансур таҳририда. 2-китоб. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
10. Абул Муҳсин Муҳаммад Боқир. Баҳоуддин Балогардон (Мақомоти Хожа Баҳоуддин Нақшбанд). Форсийдан тарж., сўзбоши ва луғат муаллифи Маҳмудхон Махдум Ҳасанхон Махдум ўғли. – Т.: Ёзувчи, 1993.
11. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. МАТ. 20 томлик, 17-том. – Т.: Фан, 2001.

- 12.Ахмедов Б.А. Улугбек и политическая жизнь Мавераннахра XV в. В сб.: Из истории эпохи Улугбека. – Ташкент: Наука, 1965.
- 13.Бартольд В.В. Улугбек и его время. Соч. В 9 т. – М.: Наука, 1964. Т. 2.
- 14.Бартольд В.В. Сочинения. В 9 томах. Т. VII. – М.: Наука, 1973.
- 15.Бузруков М. Низомиддин Хомуш – Хожа Ахрор устози // Республика ёш олимлар илмий-амалий конференцияси материаллари. – Т.: Фан, 2007.
- 16.Бухорий С.С. Дилда ёр (Ҳазрат Баҳоуддин Нақшбанд). – Т.: Ғ. Ғулом ном. Адабиёт ва санъат наш., 1993.
- 17.Бухорий С.С. Табаррук зиёратгоҳлар. – Т.: Ёзувчи, 1993.
- 18.Бўронов Б. Тасаввуф фалсафаси хусусида. – Т.: Ёзувчи, 2000.
- 19.Валихўжаев Б. Хожа Ахрор Вали. – С.: Зарафшон, 1993.
- 20.ДеВис, Девин. Хусейн Хорезми: Среднеазиатский суфий начала XV века // Из истории суфизма: источники и социальная практика. – Т.: Наука, 1991.
- 21.Жўзжоний А.Ш. Тасаввуф ва инсон. – Т.: 2003.
- 22.Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи Порсо Шамсиев. – Тошкент: Юлдузча, 1989.
- 23.Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи таймур. Сўз боши, араб тилидан таржима ва изохларни филология фан. ном. У.Уватов тайёрлаган. 2 китоб. – Тошкент: Меҳнат, 1992.
- 24.Каримов С. Амир Темур ва нақшбандийлик. Таълим тизимида талаба ёшларнинг ғоявий-мафкуравий тарбияси ва уларнинг уйғунлигини таъминлашнинг долзарб муаммолари. Мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция. б. 50-54
- 25.Каримов Э.Э. Темур ва Темурийлар даврида диний-мафкуравий вазият. – Темур ва Улугбек даври тарихи. – Т.: Қомуслар бош таҳ., 1996.
- 26.Каримов Э. Хўжа Ахрор ҳаёти ва фаолияти. – Т.: Маънавият, 2003.

- 27.Каримов Э.Э. Кубравийский вақф XVII-XIX вв.: письменные источники по истории суфийского братства Кубравийа в Средней Азии. – Т.: Фан, 2008.
- 28.Каттаев К. Махдуми Хоразмий ва хонақоҳи тарихи. – С.: Зарафшон, 2003.
- 29.Каттаев К. Гўри Амир макбараси ва қабртошлари тарихи. – С.: Зарафшон, 2008.
- 30.Комилов Н. Нажмиддин Кубро. – Т.: А.Қодирий ном. халқ мероси наш., 1995.- 32 б.
- 31.Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Мовароуннаҳр-Ўзбекистон, 2009.
- 32.Носиров Р. Тасаввуф таълимоти, унинг моҳияти ва аҳамияти. – Т.: 1996.
- 33.Нуритдинов М. Юсуф Қорабоғий ва Ўрта Осиёда XV-XVIII асрлардаги ижтимоий-фалсафий фикрлар. – Тошкент: Фан, 1991.
- 34.Петрушевский И.П. Очерки по истории феодальных отношений в Азербайджане и Армении в XVI – начале XIX в. – Л., 1949.
- 35.Петрушевский И.П. Ислам в Иране в VII-XV веках. М-Л.: ЛГУ, 1966.
- 36.Раззокова М.С. Яъқуб Чархийнинг илмий мероси ва унинг нақшбандия тариқати ривожиди тутган ўрни (XIV-XV асрлар): Тарих фан. ном. ... дис. – Ташкент, 1998
- 37.Раззокова М. Мавлоно Яъқуб Чархий – Хожа Аҳрорнинг пири // Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2004 й. № 2
- 38.Саидбоев Т.С. Ислам и общество. – М.: Наука, 1984.
- 39.Салоҳий Д. Ҳуррият ҳарорати. – Тошкент: Фан, 2007. – 112 б.
- 40.Султон И. Баҳоуддин Нақшбанд абадияти. – Тошкент: Фан, 1994.
- 41.Тримингэм Дж.С. Суфийские ордены в исламе. М.: Наука, 1989.
- 42.Турар Усмон. Тасаввуф тарихи. – Т.: Истиқлол, 1999.
- 43.Усмонов О. Кубравия тариқати // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1995 й. 26 май

44. Усмонов О. Шайх Нажмиддин Кубро ва Кубравия тариқати ҳақида // Шайх Нажмиддин Кубро. Масъул муҳаррир Э.Юсупов. – Т.: Ёзувчи, 1995.
45. Фасих Ахмад ибн Джалал ад-Дин Мухаммад ал Хавафи. Муджмал-и Фасихи (Фасихов свод). Перевод, предисловие, примечания и указатели Д.Ю. Юсуповой. – Ташкент: Фан, 1980. – С. 240.; Материалы по истории Средней и Центральной Азии Т., 1988
46. Фахруддин Али Сафий. Рашахоту айнил-хаёт (Обихаёт томчилари). Таржимон домла Худойберган ибн Мухаммад (XIX аср). Нашрга тайёрловчилар М.Ҳасаний, Б.Умрзоқ. Масъул муҳаррир Б.Умрзоқ. – Т.: Абу Али Ибн Сино ном. тиббиёт наш., 2004.
47. Хидирова Н.Ў. Хожа Мухаммад Порсонинг хожагон-нақшбандия тариқатининг ривожланишида тутган ўрни ва роли (XIV а.о.-XV а. б.): Тарих фан. ном. ... дис. – Ташкент: 2008
48. Қиличева К. Баҳоуддин Нақшбанд таълимотида таълим-тарбия масалалари // Тил ва адабиёт таълими. 2001 № 1
49. Қосимова З., Наврўзова Г. “Мақомоти Ҳазрати Хожа Нақшбанд” руҳий баркамоллик дастури // Халқ таълими. 1995 № 5-6
50. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. Қайта ишланган 2-нашр. Таржима ва тафсир муаллифи Шайх Абдулазиз Мансур. – Т.: Тошкент ислом университети, 2006.
51. Ҳасаний М., Раззоқова М. Хожагон тариқати ва Хожа Ҳасан Андоқий. – Т.: Имом ал-Бухорий рес. илмий-маърифий мар. наш., 2003.
52. Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдулланом. – Т.: Фан, 1966.